



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 26-iyun, № 129 (9024)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON — MO'G'ULISTON: KO'P TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK RIVOJI YO'LIDAGI KENG IMKONİYATLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga binoan 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Tarixdagi birinchi bo'lgan ushbu tashrif O'zbekiston — Mo'g'uliston munosabatlarida yangi bosqichni boshlab berdi va ko'p qirrali hamkorlik rivoji uchun keng imkoniyatlar ochdi. Davlatimiz rahbari tashrifning birinchi kuni Ulan-Bator shahrida Prezident Uxnaagiyn Xurelsux bilan tor doirada va kengaytirilgan

tarkibda muzokara o'tkazdi. Amaliy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va sanoat sohaslarida kooperatsiyani rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va

Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Shuningdek, Prezidentlar huzurida quyidagi hujjatlar imzolandi: — o'simliklar karantini va himoyasi, oliy ta'lim,

tog'-kon sanoati, atrof-muhitni muhofaza qilish, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, sog'liqni saqlash va tibbiyot fani, jismoniy tarbiya va sport sohaslarida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar; — ikki mamlakat arxiv idoralari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bayonoma;

— O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan Mo'g'uliston Iqtisodiyot va taraqqiyot vazirligi o'rtasida, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2026-2027-yillarga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan Mo'g'uliston Madaniyat, sport, turizm va yoshlar vazirligi o'rtasida 2025 — 2028-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturlari;

— O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Mo'g'uliston Oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va yengil sanoat vazirligi o'rtasida qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha hamkorlik rejasi;

— O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan Mo'g'uliston Madaniyat, sport, turizm va yoshlar vazirligi o'rtasida ekoturizm sohasidagi harakatlar rejasi.

Ushbu muhim hujjatlar o'zaro aloqalarning yangi bosqichida ikki yurt uchun istiqbolli va muhim ahamiyatga ega o'zaro manfaatli munosabatlar boshlanganini tasdiqlaydi.

abadiy do'stlik rishtasini mustahkamlab, hamkorlik tarixida yangi sahifa ochishi shubhasiz.

Prezidentlar rafiqalari bilan ikki mamlakat san'at ustalarining qo'shma konsertida ishtirok etdilar.

Tashrifning ikkinchi kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux rafiqalari bilan birga “Ix Tenger” davlat majmuasi bog'ida daraxt ekdilar.

Marosim ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik tobora mustahkamlanib borayotgani, O'zbekiston — Mo'g'uliston keng qamrovli sheriklik munosabatlarining rivojlanishida yangi bosqich boshlanganining ramzi bo'ldi.

Tashrif davomida oliy martabali mehmonlar “Naadam” an'anaviy mo'g'ul bellashuvlarini tomosha qildilar. Mo'g'ulistonga ilk tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari rivojida tarixiy voqea bo'ldi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mo'g'ulistonga davlat tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINI 2030-YILGA QADAR RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

So'nggi yillarda xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining (keyingi o'rnlarda — mahalliy Kengashlar) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha vakolatlarining takomillashayotganligi, shuningdek, **yangilangan Konstitutsiyada** mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilishi belgilanganligidan kelib chiqib, **“Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim”** tamoyilini ro'yobga chiqarish maqsadida **qaror qilaman:**

I. Maqsadlar

1. Ushbu Farmonni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar etib quyidagilar belgilansin:

a) mahalliy darajada **xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish**, jumladan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati **vakillik organlarining rolini oshirish**;

b) fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid **demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash**, ijro hokimiyati organlarining mahalliy xalq vakillari oldidagi hisobdorligini oshirish;

v) hududiy boshqaruvni **“aholi manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili asosida **nomarkazlashtirish** va Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari hamda tuman va shahar Kengashlari **vakolatlarini muvozanatli taqsimlash**, har bir bo'g'indagi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining **vazifa va funksiyalarini aniq belgilash**;

g) hududlararo savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kuchaytirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari **xalqaro hamkorligining** huquqiy asoslarini mustahkamlash.

(Davomi 2-betda).



Dunyo nigohi

HAMKORLIKNING YANGI ARXITEKTURASI

BARQAROR RIVOJLANISH, TINCHLIK VA DO'STLIK RISHTALARINI MUSTAHKAMLASHGA HISSA QO'SHMOQDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 24-25-iyun kunlari Mo'g'ulistonga davlat tashrifi ikki mamlakat munosabatlarida tarixiy voqea bo'lib, o'zaro hamkorlikning sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab berdi. Bu O'zbekiston yetakchisining Ulan-Batorga ilk tashrifi hisoblanadi hamda rasmiy Toshkentning Sharqiy Osiyo mintaqasida diplomatik va iqtisodiy ishtirokini kengaytirish istagini yaqqol namoyon etadi.

Tashrif chog'ida oliy darajadagi muzokaralar o'tkazildi, uning yakunlari bo'yicha O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasida Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat tomonlarning savdo va investitsiyadan tortib ta'lim, madaniyat va xalqaro hamkorlikkacha bo'lgan barcha muhim yo'nalishlarda o'zaro aloqalarni chuqurlashtirishga tayyor ekanidan dalolat beradi. Bu, shuningdek, rasmiy Toshkent va Ulan-Bator o'rtasidagi hamkorlikning uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan yangi formatini ham belgilab berdi.

Hamkorlikning yangi arxitekturasini umumiy strategik manfaatlar, suverenitet va hududiy yaxlitlikni qo'llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanishga intilishning umumiy istagini namoyon qiladi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy barqarorlik, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik, gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalarini ham muhokama qildilar. Tashrifning ahamiyati va erishilgan kelishuvlar siyosatshunoslari, xalqaro munosabatlar bo'yicha ekspertlar, mintaqaviy diplomatiya mutaxassislari uchun muhim mavzuga aylanib bormoqda.

Xalqaro ekspertlar ta'kidiga ko'ra, O'zbekiston — Mo'g'uliston muloqoti tobora barqaror va pragmatik tus olayapti, ikki tomonlama aloqalar dinamikasi esa o'zaro manfaatdorlikdan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

25-iyun kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tamog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning sakkizinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni senatorlar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi, aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, oldida turgan birinchi darajali vazifalar muhokama qilindi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, ko'rilayotgan choralar natijasida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlandi.



Yurtimiz bo'ylab...



4-sahifaga qarang

Parlament diplomatiyasi

O'ZARO DO'STLIK ALOQALARI YANADA KENGAYADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov Turkiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi U. Ulutash bilan uchrashdi.

Keyingi yillarda davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdog'anning siyosiy irodasi bilan keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari o'zaro ishonch va do'stlik rishtalari asosida jadal rivojlanib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilgani alohida qayd etildi.

U. Ulutash, o'z navbatida, samimiy munosabat uchun minnatdorlik bildirib, so'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi jadallik bilan olib borilayotgan tarixiy islohotlarga yuqori baho berdi.

Shuningdek, u O'zbekistondagi vazirlik va idoralar vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda o'zbek tomoni turk xalqini qardoshi sifatida bilib, doimo iliq munosabatda bo'lganini ta'kidladi.



Elchining aytishicha, Turkiya parlamentida 100 dan ortiq davlatlar bilan do'stlik guruhlar tuzilgan bo'lib, eng faoli “Turkiya — O'zbekiston” do'stlik guruhi hisoblanadi. Unga ko'ra do'stlik guruhi a'zolari o'z vazifalarini bajarish bilan birgalikda qardoshlar bilan muntazam muloqotda bo'lishdan hamisha mamnun.

Uchrashuvda elchi vakolati doirasida ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shishga tayyor ekanini bildirdi.



O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR YUQORI BAHOLANDI

“Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i” xalqaro tashkiloti tomonidan 2025-yil uchun e'lon qilingan Barqaror rivojlanish hisoboti reytingida O'zbekiston o'z ko'rsatkichini 19 pog'ona yaxshilab, 167 ta mamlakat orasida 62-o'rinni egalladi.

Hisobotda mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar yuqori baholangan. Ya'ni O'zbekiston 2015-yildan buyon Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mintaqalarida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha eng tez sur'atlarda taraqqiyotga erishgan davlat sifatida tilga olingan.

Xususan, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, gender tenglikka erishish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini

kuchaytirish, raqamli va “yashil” iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, shuningdek, statistik ma'lumotlarning ochiqligini oshirish sohaslarida erishilgan yutuqlar alohida qayd etildi.

Xalqaro ekspertlar tomonidan O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi yutuqlari Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan keng qamrovli institutsional va tarkibiy islohotlarning natijasi ekanini yakdillik bilan e'tirof etildi.

“Xalq so'zi”.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisi toʻgʻrisida

AXBOROT



Axbori-Maʼlumotlar Oliy Majlisi

Birgina joriy yilning oʻzida sanoat 6,4 foizga oʻsdi, eksport hajmi 18 foizga, xorijiy investitsiyalar 46 foizga oshdi. Qiymati 3 milliard dollarlik 2,5 mingdan ziyod yangi quvvatlar ishga tushdi.

Biroq bugungi zamon rivojlanishi, dunyoda yuzaga kelayotgan global muammolar, yangi urush oʻchoqlari hamda beqarorlikning davom etishi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni, taraqqiyot surʼatlariga mos yangi vazifalarni qoʻyishni talab qilmoqda.

Xususan, islohotlarning samaradorligiga salbiy taʼsir qiluvchi omillar qayd etildi.

Jumladan, vazirlik va hokimliklar, ularning viloyat, tuman darajasidagi boʻgʻinlarining muammoli masalalarni hal qilish boʻyicha ishi yetarli darajada samarador emasligi taʼkidlandi. Koʻpgina muammolarga vazirlik va idoralar, hokimliklar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslardagi mavjud kamchiliklar sabab boʻlmoqda.

Aholi kayfiyatiga taʼsir qiluvchi, jumladan, suv taʼminoti, tuman va mahalladagi infratuzilma, oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik, kambagʻallikdan chiqarish, mahalliy byudjet tushumlarini oshirish, jinoyatchilikni qisqartirish, yoʻl qurilishi, jamoat transporti, shaharsozlik, “Yashil makon” loyihasini amalga oshirish, energiya taʼminoti kabi muhim sohalaridagi birlamchi vazifalar muhokama qilindi.

Bundan tashqari, belgilanayotgan vazifa va topshiriqlarni samarali amalga oshirish uchun yangi tashkiliy va maʼmuriy islohotlar boshlangani, mavjud muammolar, aholi tomonidan koʻtarilayotgan murojaatlarni hal qilish boʻyicha yangi tizim ishga tushirilayotgani qayd etildi.

Senatorlar Prezident tomonidan qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi masalalarga alohida eʼtibor qaratish zarurligini taʼkidladi.

Xususan, joylarda aniqlangan muammolarni bartaraf qilishda hudud va respublikadagi masʼullarning oʻzaro hamkorligini muvofiqlashtirib borish lozimligi qayd etildi.

Fuqarolar bilan ishlash tartibini yangi darajaga olib chiqish, murojaatlarni doimiy tahlil qilish, aholi tomonidan koʻtarilgan muammoli masalalarni Senat majlislariga

olib chiqish maqsadga muvofiqligi taʼkidlandi.

Bundan tashqari, dasturlar, loyihalarning ijrosini taʼminlashda ularning qay darajada samarali bajarilgani, qanday natija berganiga asosiy urgʻu berish, belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda mahalliy Kengashlarning faolligini oshirish muhimligi qayd etildi.

Muhokama yakunida Oliy Majlis Senati hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari oldida bu borada turgan birinchi darajali vazifalar yuzasidan Senatning qarori qabul qilindi.

Shundan soʻng “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun koʻrib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda soʻz erkinligi muhiti yaratilgani, xalq manfaatlarini va siyosiy irodasi erkin bildirilishi uchun huquqiy asoslar mustahkamlangani, siyosiy partiyalarning jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilayotganligi taʼkidlandi.

Ushbu qonun soʻz erkinligini taʼminlash, siyosiy partiyalarning jamiyatdagi oʻrni yanada mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan boʻlib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda siyosiy partiyalar faoliyatiga oid 5 ta qonunga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Unga koʻra, oʻzini parlamentdagi muxolifat deb eʼlon qilgan siyosiy partiya fraksiyasiga qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqilguniga qadar ham oʻsha masalaga doir qonun loyihasining yoki uning tarkibiy qismining muqobil tahririni kiritish kabi qoʻshimcha huquq berilmoqda.

Shuningdek, ushbu fraksiyaning vakillari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir nafar qoʻmita raisi va ikki nafar qoʻmita raisi oʻrinbosari lavozimlarini kafolati egallashi, har chorakda “hukumat soati” va parlament soʻrovi doirasida masala kiritishi ham nazarda tutilmoqda.

Senatorlar ushbu qonunning hayotga tatbiq etilishi qonun ijodkorligi va parlament nazorati samaradorligini oshirishga hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida muxolifatning kafolatlari

huquqlarini kengaytirishga xizmat qilishini taʼkidladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi. Shuningdek, yalpi majlisda “Ijro ishi boʻyicha kafolat mablagʻlarini kiritish instituti joriy etilishi munosabati bilan “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni muhokama qilindi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilayotganligi taʼkidlandi.

Xususan, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishni raqamlashtirish hamda inson omilini kamaytirish yuzasidan qonunchilikka yangi normalar kiritilgan. Bundan tashqari, sud hujjatlarini ijro etishdan har qanday boʻyin tovlashning oldini olish, fuqarolarning mol-mulki va pul mablagʻlari daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan qator qonun hujjatlari amaliyotga tatbiq qilindi.

Tahillarga koʻra, 2022 – 2024-yillar davomida sud qarorlari ijrosiga oid koʻplab ijro hujjatlari sud tartibida nizolashayotganligi va davlat ijrochisi harakatlari ustidan shikoyat qilinayotganligi sababli ijro jarayonida muayyan muammolar vujudga kelmoqda. Natijada qardzor oʻziga nisbatan qoʻllanilgan cheklovlar sababli oʻz faoliyatini davom ettira olmayapti.

Shu oʻrinda sud qarori qabul qilingan shaxslarning qonuniy manfaatlarini hamda sud qarorlarining soʻzsiz ijrosini taʼminlash maqsadida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayoniga kafolat mablagʻini kiritish institutini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bunda ijro ishi boʻyicha kafolat mablagʻlarini kiritish ijro ishi yuritishni toʻxtatib turish, qardzorga va uning mol-mulkiga nisbatan qoʻllanilgan cheklovlarni bekor qilish uchun asos boʻlishi nazarda tutilmoqda.

Senatorlar ushbu qonunning hayotga tatbiq etilishi mamlakatimizda qonun ustuvorligini taʼminlash, fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda sud qarorlari ijrosini taʼminlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishini taʼkidladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shundan soʻng “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun koʻrib chiqildi.

Mamlakatimizda korporativ munosabatlarni rivojlantirish hamda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish boʻyicha samarali izchil islohotlar olib borilayotganligi taʼkidlab oʻtildi.

Shuningdek, senatorlar qonunchilikni xalqaro normalarga, shu jumladan, Jahon savdo tashkilotining bitimlariga uygʻunlashtirish orqali tashqi savdoni

yanada liberallashtirish zarurati yuzaga kelayotganligiga alohida urgʻu berdi.

Bugungi kunda respublika importining 32,3 foizi erkin savdo rejimi oʻrnatilgan mamlakatlar, 61,4 foizi eng koʻp qulaylik berish rejimi qoʻllanilayotgan davlatlar hissasiga va qolgan 6,3 foizi savdo rejimi belgilanmagan davlatlar yoki ishlab chiqargan mamlakati aniqlanmagan tovarlar hisobiga toʻgʻri keladi.

Xususan, respublikaga import qilinayotgan tovarlarning 95 foizi Jahon savdo tashkilotiga aʼzo davlatlardan, qolgan 5 foizi esa ushbu tashkilotga aʼzo boʻlmagan davlatlardan olib kelinmoqda.

Shularni inobatga olgan holda, mazkur qonun bilan Bojxona kodeksiga eng koʻp qulaylik berish rejimiga ega boʻlmagan davlatlardan Oʻzbekistonga keltirilayotgan tovarlar uchun tovarning kelib chiqishi toʻgʻrisidagi sertifikat mavjud boʻlmaganda import bojini ikki karra oshirib qoʻllash amaliyoti bekor qilinmoqda.

Shu bilan birga, bojxona organi tomonidan harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilgandan soʻng Davlat byudjetiga oʻtkazilishi belgilangan bojxona toʻlovlarning muddati 5 ish kunidan 3 ish kuniga qisqartirilmoqda.

Mazkur oʻzgartirish va qoʻshimchalar bilan milliy qonunchilik normalarini Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirish orqali tashqi savdoni adolatlilik qoidalar asosida amalga oshirishga, import va eksport koʻlamini kengaytirishga erishiladi.

Shuningdek, ushbu qonunda aksiyadorlik jamiyatlari ijro organlari hamda kuzatuv kengashlari aʼzolarining fidusiar majburiyatlarini, jamiyat majlislari aksiyadorlarining umumiy majburiyatlarini va javobgarligini belgilash hisobiga korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, korporativ boshqaruvning zamonaviy uslub va mexanizmlarini joriy etish kabi masalalar ham oʻz aksini topgan.

Yalpi majlis davomida qonun qizgʻin muhokama qilinib, uning kelgusida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratishga, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi haqida fikrlar bildirildi.

Muhokama yakunida mazkur qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Senatning 8-yalpi majlisida “Tashqi mehnat migratsiyasi toʻgʻrisida”gi qonun muhokama qilindi.

Mazkur qonun fuqarolar va mamlakatimizda doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqishi hamda chet el fuqarolarining va boshqa davlatlar hududida doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning mamlakatimizda mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida jalb etilishi bilan bogʻliq munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Muhokama jarayonida qonunni qayta koʻrib chiqishni talab etuvchi qator masalalar mavjudligi taʼkidlandi.

Jumladan, ayrim davlat organlarining mazkur sohadagi vakolatlarini soʻnggi maʼmuriy islohotlardan kelib chiqqan holda qayta koʻrib chiqish zarurligi qayd etildi.

Shu bilan birga, xorijga ishga yuboruvchi tashkilotlarga Migratsiya agentligining xorijdagi vakolatxonalarini bilan hamkorlikda mehnat shartlariga rioya etilishini oʻrganish huquqini berish muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida taʼkidlandi.

Bundan tashqari, xorijga ishga yuboruvchi tashkilot tomonidan majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, qolgan 5 foizi esa ushbu tashkilotga qaytarish jarayoni Agentlik tomonidan amalga oshirilishi va xarajatlarni yuboruvchi tashkilot mablagʻlari hisobidan qoplash mexanizmini qonunda mustahkamlash maqsadga muvofiqligi qayd etildi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomani berish, uning amal qilishini toʻxtatish, tugatish yoki bekor qilish asoslarini ham qayta koʻrib chiqish zarurligiga eʼtibor qaratildi. Shu bilan birga, tasdiqnomaga uchun undiriladigan yigʻim miqdori yuzasidan aniq huquqiy mexanizmlarni belgilash zarurligi qayd etildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, qonunni qayta koʻrib chiqish maqsadga muvofiq, deb topildi va mazkur masala yuzasidan Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Yalpi majlisda “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda qishloq xoʻjaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, sohaga zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hamda eksport salohiyatini oshirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xoʻjaligida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, shuningdek, sohada faoliyat olib borayotgan subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini yanada kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga, “Urugʻchilik toʻgʻrisida”gi va “Oʻzboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga boʻlgan huquqlarni eʼtirof etish toʻgʻrisida”gi qonunlarga Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuriga oʻtkazilganligi munosabati bilan amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish yuzasidan tahririy oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, “Davlat boji toʻgʻrisida”gi qonunga Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi oʻzining hamda meva-sabzavotchilik yoʻnalishidagi mahsulot yetishtiruvchi, qayta ishlovchi subyektlarning, issiqxona xoʻjaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudlarga berilgan arizalar, shikoyatlar va daʼvolar yuzasidan davlat bojini toʻlashdan ozod etilishini belgilovchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Senatorlar tomonidan taʼkidlanganidek,

qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, agrar sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida ushbu qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shu bilan birga, “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun muhokama qilindi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda aholining, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarining intellektual mulk sohasidagi xabardorlik darajasini oshirish, yaratilgan intellektual faoliyat natijalarini muhofaza qilish jarayonlarini raqamlashtirish orqali ortiqcha talablarni bekor qilish hamda intellektual mulkni huquqiy jihatdan ishonchli tarzda muhofaza qilish borasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Ular intellektual mulk obyektlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish jarayonini soddalashtirish, ayrim intellektual mulk obyektlarini ekspertiza qilish muddatlarini qisqartirish, roʻyxatdan oʻtkazish jarayonlarida ortiqcha hujjatlardan voz kechish kabi masalalarni oʻz ichiga olgan.

Bundan tashqari, patent bojlarini toʻlashda qoʻshimcha qulayliklar joriy etish hamda intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va maʼlumotlar bazalarining huquqiy himoyasi toʻgʻrisida”gi qonunga kiritilayotgan oʻzgartirishga koʻra elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni roʻyxatdan oʻtkazish uchun talabnoma kelib tushganidan soʻng kerakli hujjatlarining bor-yoʻqligi va qoidalarining talablariga qanchalik muvofiqligi yuzasidan oʻtkaziladigan tekshirish muddati oʻn kun etib belgilanmoqda.

Shuningdek, sanoat mulki obyektlarini roʻyxatga olishda patentni tasdiqlash tartibi yengillashtirilmoqda. Bunda sanoat mulki obyekti roʻyxatga olinganda patent talabnoma beruvchiga avtomatik tarzda elektron tizim orqali yuboriladi.

Senatorlar taʼkidlaganidek, ushbu qonun mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishiga va innovatsion jihatdan yuksalishiga samarali taʼsir koʻrsatuvchi intellektual mulk tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur hujjat jamiyatda intellektual mulk boʻlgan huquqlarga nisbatan hurmat hissin shakllantirishga hamda intellektual mulk egalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ham qaratilgandir.

Qonun senatorlar tomonidan maʼqullandi.

Shuning bilan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining sakkizinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining
Axborot xizmati

XALQ MANFAATLARI HIMOYASINING HUQUQIY POYDEVORI

Kecha Oliy Majlis Senati sakkizinchi yalpi majlisining birinchi kunida qator dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Munosabat

Oziq-ovqat xavfsizligi – ustuvor vazifa

Anvar TOʻYCHIYEV,
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi:

– Qishloq xoʻjaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, dehqon-fermer xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hamda eksport salohiyatini oshirish borasida keng koʻlamli ishlar olib borilyapti. Qishloq xoʻjaligini isloh qilishda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarda investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda sohaga zamonaviy texnikalar olib kiritilishi hisobiga qator ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, oʻtgan yilda 33,6 ming gektar mevali bogʻ va 101 ming gektar uzumzor barpo etilgan. Hosildorligi va iqtisodiy samaradorligi past boʻlgan 26,2 ming gektar bogʻ va 23 ming gektar tokzor rekonstruksiya qilingan. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining eksport geografiyasi 10 ta davlatga kengayib, 83 taga yetgan va ularga 2,3 mlrd. dollarlik mahsulot yuborilgan.

Sohadagi ilmiy markazlar, tajriba

xoʻjaliklari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali zamonaviy bilimlar, yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish qishloq xoʻjaligini yanada rivojlantirishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va davlat nazoratini kuchaytirish, shuningdek, intensiv usulda bogʻ hamda tokzorlar barpo etish, issiqxona xoʻjaliklarini rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilayapti.

Shu bilan birga, raqobat muhitini rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga davlat tomonidan berilib, oʻz muddatida qaytarilmagan ssuda hamda maqsadsiz foydalanilgan subsidiya mablagʻlarini qaytarish masalalariga oid daʼvolar, arizalar va shikoyatlar bilan sudlarga murojaat qilishda davlat bojini toʻlashdan ozod etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Taklif etilayotgan “Oʻzbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga va boshqa qonunlarga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining nomi aniqlashtirishini va unga qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerga boʻlgan huquqni davlat roʻyxatidan oʻtkazish uchun oʻz vaqtida murojaat etmaslik bilan bogʻliq huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarini koʻrib chiqish vakolati berilishini nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashga, meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga, agrar sohadagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sudlarga murojaat qilish uchun ajratilgan davlat boji toʻlovidan tejalgan mablagʻlarni tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining va isteʼmolchilarning huquqlari yanada ishonchli himoya qilinishini taʼminlash uchun yoʻnaltirishga erishiladi.

Jamiyat siyosiy hayotini erkinlashtirishning yangi bosqichi

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi aʼzosi:

– Taʼkidlash joizki, fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri, bu – siyosiy partiylar. Keyingi yillarda mamlakatimizda ularning jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Siyosiy partiyalarga yangi vakolatlarining berilishi bilan oʻz-oʻzidan ularning jamiyat oldidagi masʼulligi kuchayadi. Umuman, ular vakolatlarining kengaytirilishi jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirish jarayonining yangi bosqichini boshlab beradi. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” siyosiy konseptual dasturlash oʻlchomiyati ham, asosan, ana shu maqsadga qaratilgan.

2024-yil 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 1-majlisida Prezidentimiz tomonidan parlament nazoratida keng koʻlamli, sifati nazorat tizimiga oʻtish zarurligi taʼkidlanib, gʻoyalari kurashini jonlantirish uchun parlamentdagi muxoliflarga kafolatlangan huquqlari sonini oshirish, “hukumat soati” va parlament soʻrovi doirasida masala kiritishi kabi qoʻshimcha huquqlar berish taklif qilingan edi.

Darhaqiqat, bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oʻzini parlamentdagi muxolifat deb eʼlon qilgan siyosiy partiylar fraksiyalari uchun qonunda nazarda tutilgan vakolatlar hamda huquqlarni yanada kengaytirish

zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun ishlab chiqildi.

Qonun 6 ta moddadan iborat boʻlib, u bilan Oʻzbekiston Respublikasining bir nechta qonunlariga parlamentda muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Shu oʻrinda “Muxolifat nima va parlamentda muxolifat nima uchun kerak?” degan savol tugʻilishi tabiiy.

Muxolifat – qabul qilinayotgan qarorlarni tanqidchi koʻrib chiqish orqali toʻgʻri yoʻl tanlashga koʻmaklashib, shu orqali qarorlar yanada xalqchil, asoslangan va adolatlilik boʻlishini taʼminlashga xizmat qiladi. Muxolifat odatda nazoratchi rolini bajarib, hokimiyatga kelgan kuchlarning sergak, uygʻoq boʻlishini taʼminlaydi. Shuningdek, muxolifat aholi va saylovchilarni qiyinayotgan muammolarni koʻtarib chiqib, parlamentdagi koʻpchilik diqqatini ushbu masalalarga qaratadi, ularni hal etishga koʻproq eʼtibor berishni talab qiladi.

Umuman olganda, muxolifat fuqarolarning fikr bildirishga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish usuli hamdir.

Mazkur qonun bilan:

– Qonunchilik palatasidagi oʻzini muxolifat deb eʼlon qilgan siyosiy partiya fraksiyasiga 1 nafar qoʻmita raisi va 2 nafar qoʻmita raisi oʻrinbosari lavozimlarini kafolatlilik egallash;

– oʻzini parlamentdagi muxolifat deb eʼlon qilgan siyosiy partiya fraksiyasiga qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqilguniga qadar ham oʻsha masalaga doir qonun loyihasining yoki uning tarkibiy qismining muqobil tahririni kiritish;

– har chorakda “hukumat soati” va parlament soʻrovi doirasida muxolifat tomonidan kamida bittadan masala kiritish kabi qoʻshimcha huquqlar berilishiga oid oʻzgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda.

Zero, qonunning qabul qilinishi xalq manfaatlariga mos qonun hujjatlarini ishlab chiqilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chogʻda Qonunchilik palatasidagi oʻzini muxolifat deb eʼlon qilgan siyosiy partiya fraksiyasiga qoʻshimcha huquqlarning berilishi parlamentda turli qarashlar, fikrlar xilmaxilligining kuchayishida muhim omil boʻladi.

Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga qaraydigan boʻlsak, parlamentdagi fraksiyalarning huquqlari masalasiga oid normalar Buyuk Britaniya, Malayziya, Portugaliya va boshqa koʻplab mamlakatlarda joriy etilgan boʻlib, bu amaliyot oʻzining ijobiy samarasi bilan vaqt sinovidan oʻtgan.

“X



1 Hayitboy degan og‘am bor. 91 yoshda. Surxondaryoning Qiziriq tumanida yashaydi. Eski zamonda uzoq yil katta xo‘jalikning rahbari bo‘lgan. Boobro‘ odam. Yer bilan, el bilan, ekin-tekin bilan tildosh. Yigitdek tetik, har tong bomdod namozdan keyin uch kilometr yuguradi. Yetmish yildan buyon kundalik tutadi. Kitobxon. Ziyolilar, ayniqsa, yozuvchi, shoirlar jurnalistlarga mehri boshqacha. Toshkentga kam keladi. Tez-tez telefonda guruhlashib turamiz.

– Bilasiz, men tinmay gazetalar o‘qiyman, – dedi tinov kuni Hayitboy ota. – Internetniyam tinch qo‘lmayman. O‘qisang, ko‘ngil suv ichadigan maqolalar bor. Lekin kam...

– To‘g‘ri... – deyman sekingina. – Biz qalamkashlar hayot shiddatidan sal orqada...

– Sayoz gaplar, quruq raqamlar, – gapimga parvo qilmay davom etadi otaxon. – Qanday zo‘r ishlar bo‘lyapti. Zavod, fabrika, butun-butun shaharlar qurilyapti. Gazetga qarasang, xuddi “tap” etib osmondan tushganday. Jumlarlar ohanjama, maqtovlar beo‘xshov. Ishchi ishchiga, dehqon dehqonga o‘xshab gapirmaydi. Aytaymi nega? Bormay, ko‘rmay yozasizlar. Qayerdandir, eshitganlarining qo‘shib-chatib to‘qiysizlar. Uka, bu o‘zgarishlar Qoroboboning sovg‘asi emas. Televizorda Prezidentimizning “Bo‘layotgan ishlarning qiyinligini bilganlar biladi, bilmaganlar baxtli”, deb kuyunganlarini eshitganimda, u kishiga qo‘shilib yonib ketaman. Prezidentimiz nega bunchalar kuyib-pishyapti, nega qiyinchiliklarni tushunmaganlar baxtli, deb yozg‘iryapti, jurnalistlar shu haqiqatning tomirini ko‘rsatishi kerakmasmi, uka?

Hayitboy o‘taning gaplari, “nozik” ko‘ngliga malol kelsa-da, tan olishdan o‘zga iloj yo‘q edi.

– O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurovning telefon raqami bormi? – Murakkab vaziyatni yumshatmoqchidek so‘radi og‘am. – Domlanning “Tanlangan asarlar”ini o‘qib, ko‘p mutaassir bo‘ldim. Rahmatimni aytishim kerak. Xurshid Do‘stmuhammadniyam kerak. Kitobga “So‘zboshi”ni qo‘shiq qiyoribdi.

– Biz tomonga qachon kelasiz? – so‘radi iltimosi bajarilgach. – Keling, Surxon to‘g‘risida bir “So‘zboshi” yozing siz ham Xurshid inimga o‘xshab. Kelsangiz, o‘zim ko‘rsataman, aylanitiraman Alpomishlar yurti Surxonda, alplar vatani Surxondaryoda nimalar bo‘layotganini...

2 Alpomishlar yurti, alplar vatani borayotganini Hayitboy otaga aytmadim. Avval o‘zim tanishib, ko‘rib, “So‘zboshi”ga material yiqqanidan keyin og‘amning ziyoratiga boraman.

Safarning birinchi kuni surxondaryolik jurnalist Xolmo‘min Mamatrayimov bilan kerakli idoralarga kirdik, faktlar, raqamlar to‘pladik.

Raqamlar... Tog‘u toshlar oralab kelayotgan jig‘larlari daryoga tutashmaguncha ko‘zga tashlanmaydi. Turi jildlarda sochilib yotgan raqamlar ham bir daftarda jam bo‘lgandan so‘ng ko‘ko‘par cho‘qqilarga aylangandek bo‘lar ekan.

Nahotki, 7-8 yilda dunyoga kelgan bo‘lsa bu pahlavon raqamlar, deyman ko‘zlarimga ishongin kelmay. Nahotki, 2017-yili viloyat bo‘yicha hammasi 1 ming 743 ta bo‘lgan sanoat korxonalari 2024-yilga kelib 5 ming 845 taga yetgan? Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi 1 milliard 204 milliondan 9 milliard 652 million so‘mga ko‘paygan?

2017-yili viloyatda yetishtirilgan paxta tolasining atigi 11 foizi qayta ishlangan, hozir 100 foizi Sariosiyoda “Surxon sifat tekstil” MChJ, Denovda “Shashmaxkashob” MChJ, Sherobodda “Sherobodtekstilinvest” MChJ, Termiz shahrida “Amudaryoteks”, Jarqo‘rg‘onda “Surxonteks” va “Nortekstayl” korxonalari mazkur sohaning “drayver”lariga aylangan. Yalpi hududiy mahsulot hajmi 2024-yil yilidan bilan 63,7 trillion so‘mga, sanoat mahsulotlari hajmi 2017-yildagi 2,3 trilliondan 17,4 trillion so‘mga; ko‘p qavatli uylar soni 108 tadan 832 taga ko‘payib, keyingi sakkiz yilda 31 ming xonadon hovli to‘ylari o‘tkazgan.

2017-yilda viloyat bo‘yicha 387 ming 406 xonadon tabiiy gazdan foydalangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 452 ming 211 taga yetgan. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 2017-yildagi 42, 4 foizdan 64,7 foizga ko‘paygan.

Aholining toza ichimlik suvidan bahramand bo‘lishida Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilayotgan “To‘palang” suv ombori bilan bog‘liq loyihaning alohida o‘rni bor. Mazkur loyiha doirasida naqd 90 milliard 83

million so‘m o‘zlashtirilib, 153,1 kilometr ichimlik suvi tarmog‘i barpo qilingan. Sariosiyoda sutkasiga 200 ming kubmetr suvni tozalaydigan inshoot qurilgan. Denov tumanida 20 ming, Sho‘rchi tumanida 10 ming, Qumqo‘rg‘on tumanida 5 ming kub metr sig‘imga ega ichimlik suvini saqlash hamda tarqatish havzalari bunyod etilgan.

Endi yo‘lga bo‘lgan e‘tiborni ko‘ring: 2024-yilning o‘zida hududdagi 16 ming 171 kilometr avtomobil yo‘lining 901,1 kilometri tuzatilib, 20 ta ko‘priklar va yo‘l-tkazgichlar qurilgan. 517,4 kilometr ichki yo‘llar hashar asosida ta‘mirlangan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni o‘zlashtirish va mahalliyashtirishga jiddiy e‘tibor berilgani sababli o‘tgan yili 42 ta korxona 362,1 milliard so‘mlik import o‘rnini bosuvchi mahalliy mahsulotlar ishlab chiqargan va 20,4 million dollar tejab qolingan.

Vohaning iqtisodiy salohiyati oshib, 2024-yil 361,1 million dollarlik tovar, xizmat va mahsulotlar eksport qilingan. Ularning 182,5 million dollari sanoat, 178,5 million dollari meva-sabzavot, 58,4 million dollari to‘qimachilik sohasiga tegishli. 2017-yilgacha vohadan dunyoning boro‘yig‘i o‘nta davlatiga mahsulot jo‘natilgan bo‘lsa, endi 40 ta mamlakatga mahsulot eksport qilinayotganiga nima deysiz?

Bunday mahobatli raqamlarni yana va yana sanayverish mumkin. Ular Sherobod dashtlaridek bepoyon, Boysun qirlaridek jilvakor...

3 Sherobod dashtlaridek bepoyon, Boysun qirlaridek jilvakor raqamlar Hayitboy ota “Gazetlarni ochsang, xuddi “tap” etib osmondan tushganday...” deganda qanchalar haq ekaniga yana bir karra amin bo‘lasan kishi.

Mana, qarshimizda O‘zbekiston bilan Afg‘onistonni bir-biriga bog‘lovchi mashhur Hayraton ko‘prigi. Moviy osmon atirlagandek tiniq, havo issiq, ro‘paramizdan Jayhunning telba shabadası esib turibdi. Uzoqda qo‘shni mamlakatning afsonaviy Balx viloyati dalalari, Mozori sharif, Hayraton shaharlari qorayib ko‘rinadi. Katta yo‘lning bir tomonida bo‘xona, ikkinchi tomonida Termizning Hayraton mahallasi. Amudaryo yoqalab o‘zina yurgan kishi yaqinda ishga tushgan “Termiz xalqaro savdo markazi”ga kirib boradi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatida insonparvar va pragmatik yondashuvning amaldagi ifodasiga aylangan bu majmuaning Markaziy Osiyoda muqobili yo‘q va u alohida geostrategik ahamiyatga ega. Markaz “Karachi – Termiz – Toshkent – Qozog‘iston – Rossiya” xalqaro transport yo‘lagining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, O‘zbekiston va butun mintaqaga uchun Hind okeani portlari orqali jahon bozoriga chiqish imkonini yaratmoqda.

Bu yerda Qozog‘iston va Xitoy savdo uylari tashkil etilgan. Rossiya, Tojikiston, Qirg‘iziston, Belarus kabi davlatlar ham savdo uylarini ochishga qiziqish bildirgan.

Mazkur majmuaning yana bir muhim jihati bor. Afg‘oniston bizning yon qo‘shnimiz. Yarim asr davom etgan urushlar, avval sovetlarning, so‘ngra amerikaliklarning sug‘umlari, undan keyingi ichki nizolar... Butun boshli bir avlod o‘q yomg‘irlari ostida o‘tdi. Behisob janglar, to‘kilgan qonlardan so‘ng hukumat Tolibon qo‘liga o‘tdi. Ammo o‘zini jahonning beklarimni, deguvchi davlatlar yangi hokimiyatni takdimladi. Afg‘on muammosi ular uchun muhim emas-da. Bizga esa Prezidentimiz dunyo minbarlarida, BMT yig‘inlarida qayta-qayta ta’kidlaganlaridek “tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etuvchi, qo‘shnilar va boshqa mamlakatlar bilan ochiq sheriklikka tayyor Afg‘oniston kerak. Juda kerak! ...Hozirgi qiyin davrda Afg‘onistonni yakkalab, uni muammolar girdobiga tashlab qo‘yish mumkin emas”.

Afsuski, O‘zbekiston Prezidentining mana shu oddiy va oqilona siyosatini avval ham, hozir ham tushunmaganlar va tushunishni istamaganlar oz emas. Yurtboshimizning fikri esa o‘zgarmas va qat’iy: bizga tinch Afg‘oniston kerak. Kerakli bo‘lgani uchun qo‘shni mamlakatlarda O‘zbekiston ko‘magi bilan ko‘chalar, temir yo‘llar qurilyapti, madaniy va gumanitar yordamlar yuborilyapti, Tolibon rasmiylari bilan bir piyola choy ustida og‘ir-og‘ir muammolar hal qiliyapti. “Termiz xalqaro savdo markazi”ning barpo etilishi mazkur yumushlarning davomi hisoblanadi. Markazning ishga tushirilishi, afg‘onlar bilan bordi-keldini rivojlantirishga, tadbirkorlikka yangi yo‘llar ochishga, yuzlab odamlarni ish bilan ta‘minlab, dasturxon to‘kin, xonadoni

obod bo‘lishga hissa qo‘shmoqda. Hozir bu yerda 480 dan ziyod qo‘shma va xorijiy korxona faoliyat yuritaypti. O‘tgan yilning o‘zida Afg‘oniston bilan tashqi savdo aylanmasi 57,4 million AQSH dollariga yetdi.

36 gektar maydonni qamrab olgan markazda savdo do‘konlaridan tashqari zamonaviy mehmonxonalar, xostel, klinika, biznes markazi faoliyat yuritmoqda. Birgina “Akfa Medline” klinikasi yiliga 46 ming bemorga mehru muhabbat ko‘rsatish imkoniga ega.

Logistika markazi yiliga 22 ming yuk mashinasiga xizmat ko‘rsatadi. 1100 kishi doimiy ish bilan ta‘minlangan.

Majmuadagi o‘zbek va afg‘on tadbirkorlarining o‘zaro samimiy munosabatlarini kuzatganda, Amu to‘qinlarining yoqimli epknlari ruhingga ayricha halovat bag‘ishlayotgandek tuyuladi – suyunasan. Beixtiyor: “Bo‘larkan-ku!” deya hayqirib yuborganingini bilmay qolasan. Ular bir-birlarining tilini, madaniyatini, urf-odatlarini qadrlaydilar.

Bu yerda afg‘onlar uchun 15 kunlik vizasiz tartib yo‘lga qo‘yilgan. Bemalol so‘m, dollar, yevro, rubl va yuanda valyuta almashtirish mumkin.

Savol tug‘iladi: qani, aytimg, shu olag‘ovur zamonda qaysi davlat rahbari o‘z mamlakatidagi muammolari hal qilish barobarida hamsoyamning ro‘zg‘ori obod bo‘lsin, deb jon kuydiraypti? “Bir ko‘ngil imorati – ming Makka ziyorati”, deydlar. Necha yuz Makka ziyoratiga teng emasmi bir bozor ortidan necha yuzlab afg‘onu o‘zbekning qora qozoni qaynab turgani?

“Termiz xalqaro savdo markazi”da esa kunu tun hayot qaynaydi. Yuzlarda shodlik, ko‘zlarda quvonch. Axir “Yon qo‘shning – jon qo‘shning”, “Qo‘shning tinch – sen tinch”-dal Yomg‘ir bilan yer, tinchlik bilan el ko‘karadi. Tinchlikdan ulug‘, tinchlikdan aziz ne‘mat bor ekanmi bu gardsishi davronda, bu fig‘onli zamonda, bu jumlaı jahonda?

4 Bu gardsishi davronning, bu fig‘onli zamonning, bu jumlaı jahonning o‘nlab nuqtalarida qonxo‘r dronlar vahshiyona daydigan, bombalar portlagan, shaharu muhlitga yomon ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Biz muammoni o‘rgandik va unga chek qo‘yish va tabiat in‘om etgan bebaho boylikdan oqilona foydalanish uchun “Surxon sanoat qurilish” kompaniyasini tashkil qildik. Kompaniya mutaxassislarini xorijga yubordik, ular ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirib keldilar. Shu tariqa qamish zarrachali plitalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik.

Korxonaning arzon va pishiq mahsuloti tezda o‘z xaridorlarini topdi. Tadbirkor esa klaster usulini joriy etib, qamish zarrachali plitalarni laminatsiya qilishni ham o‘zlashtirdi. “Komfort mebel servis” korxonasida zamonaviy, bejirim mebellar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Yana bir sarmoyador Jamshid Pardayev esa vohada birinchi bo‘lib xususiy oliy ta’lim muassasasini tashkil qildi. Hozir uning ta’sischi-laridagi Termiz iqtisodiyot va servis universitetida yoshlar o‘ndan ortiq yo‘nalishda bilim olmoqda. Tadbirkor shu bilan cheklanmadi – Oltinsoy tumanining Qaymoqli qishlog‘ida o‘zi o‘qigan maktab uchun qiymati 32,5 milliard so‘mlik ikki qavatli bino qurib berdi. Yangi binoda o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun barcha zamonaviy sharoit yaratilgan. Intelktual sinfonxalar, sport zali, mini o‘yingoh, kutubxona, majlislar zali, kompyuter sinfonxalari, oshxonalar... Sinfonxalar elektron doska bilan jihozlangan.

Tadbirkorlar haqida so‘z borganda, Termiz shahridagi “Surxon Sandvich” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischi Bahrom Raupovning ism-sharifi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Bahromjon shu yilning 7-fevralida bo‘lgan videosektor yig‘ilishida davlatimiz rahbariga amalga oshirgan ishlari va rejalari to‘g‘risida gapirib berdi. Prezidentimiz Bahrom Raupovni yuksak mukofot – “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirladi.

Raupovni Vatani mukofotiga sazovor qilgan ishlar quyidagilardan iborat edi.

Bahromjon bundan sakkiz yil muqaddam import o‘rnini bosadigan sendvich ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Pishiq va zamonaviy materialdan vohada ko‘plab ijtimoiy soha binolari, ishlab chiqarish korxonalari bunyod etildi. Ellikdan ortiq ishchilar mehnat qilayotgan korxona endilikda sendvich panelda ishlatiladigan bazalt va penoplast qoplamalari ishlab chiqarishni ham o‘zlashtirmoqda. Yangi korxona yil yakunigacha foydalanishga topshiriladi va yana to‘rt yuzga yaqin ish o‘rni barpo etiladi.

Faqat shu emas, tashabbuskor ishblarmon Denov tumanidagi Qizilsuv

aytmaydigan, she‘r to‘qimaydigan odam bo‘lmasa kerag‘ov. Axir Prezidentimiz 2019-yilning 6-aprel kuni Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro baxshichilik festivalidagi nutqida bekordan-bekorga “Surxondaryo – azaldan baxshilar yurti sifatida nom qozongan”, demadilar-da.

Aytib ado qilish qiyin surxonliklarning odatlariyu an‘analarni, tabiat go‘zalliklariyu yer osti va yer usti boyliklarini.

Hatto fasllarigacha o‘ziga xos: yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Archazoru pistazor, achchiq bodomu olmozor bog‘larida, butazoru o‘rmonlarida, shifobaxsh g‘iyohlar o‘sib yotgan chakalakzorlarida erkatoq qushlarning chug‘ur-chug‘uri, bulbullarning yoqimli ovozi tinmaydi. Viloyatning janubi-sharqiy qismida tez-tez chang-to‘zonlar qo‘zg‘ab turguvchi Afg‘on shamolining-da ayricha tashvishi bor.

Omonxona, Xo‘jaipok, O‘rinbuloq, Qo‘tirbuloq kabi shifobaxsh buloqlari ham borki, ularning suvi jigar, oshqozon-ichak, teri, buyrak, qandil diabet deyidgan kasalliklarning “dodi”ni beradi. G‘alla, paxta, chorva, uzum, meva-sabzavot, subtropik o‘simliklar... Ayniqsa, surxon uzumining dovrug‘i azal-azaldan mashhur. Manbalarda aytilishicha, sarkarda Iskandar Maqduniy voha uzumiga, uzumdan tayyorlangan musallasga maftun bo‘lgan, mevalarining rangi va xushbo‘y iforlaridan zavq olgan.

5 Mevalar rangi va xushbo‘y iforlaridan zavq olgan yuz-yuzlab tadbirkorlar esa viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lida astoydil mehnat qilishyapti.

Bahodir Qodirov shularning biri. U zamonaviy ko‘p qavatli uy-yoj qurilishlari uchun yovvoyi qamish qirindisidan qimmatbaho qurilish materiali ishlab chiqaradigan “Surxon KSP-Grand” korxonasi egasi.

Viloyatimizning 26 ming gektardan ortiq maydonida yovvoyi qamish o‘sadi, – deydi tadbirkor. – Har yili kuzda qamishzorlar beayov yoqib yuborilar edi. Bu Termiz, Muzrabot tumanlari va Termiz shahrining hayvonot dunyosiga, o‘simlik olamiga katta zarar yetkazib, ekologik muhlitga yomon ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Biz muammoni o‘rgandik va unga chek qo‘yish va tabiat in‘om etgan bebaho boylikdan oqilona foydalanish uchun “Surxon sanoat qurilish” kompaniyasini tashkil qildik. Kompaniya mutaxassislarini xorijga yubordik, ular ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirib keldilar. Shu tariqa qamish zarrachali plitalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik.

Korxonaning arzon va pishiq mahsuloti tezda o‘z xaridorlarini topdi. Tadbirkor esa klaster usulini joriy etib, qamish zarrachali plitalarni laminatsiya qilishni ham o‘zlashtirdi. “Komfort mebel servis” korxonasida zamonaviy, bejirim mebellar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.


Yana bir sarmoyador Jamshid Pardayev esa vohada birinchi bo‘lib xususiy oliy ta’lim muassasasini tashkil qildi. Hozir uning ta’sischi-laridagi Termiz iqtisodiyot va servis universitetida yoshlar o‘ndan ortiq yo‘nalishda bilim olmoqda. Tadbirkor shu bilan cheklanmadi – Oltinsoy tumanining Qaymoqli qishlog‘ida o‘zi o‘qigan maktab uchun qiymati 32,5 milliard so‘mlik ikki qavatli bino qurib berdi. Yangi binoda o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun barcha zamonaviy sharoit yaratilgan. Intelktual sinfonxalar, sport zali, mini o‘yingoh, kutubxona, majlislar zali, kompyuter sinfonxalari, oshxonalar... Sinfonxalar elektron doska bilan jihozlangan.

Tadbirkorlar haqida so‘z borganda, Termiz shahridagi “Surxon Sandvich” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischi Bahrom Raupovning ism-sharifi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Bahromjon shu yilning 7-fevralida bo‘lgan videosektor yig‘ilishida davlatimiz rahbariga amalga oshirgan ishlari va rejalari to‘g‘risida gapirib berdi. Prezidentimiz Bahrom Raupovni yuksak mukofot – “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirladi.

Raupovni Vatani mukofotiga sazovor qilgan ishlar quyidagilardan iborat edi.

Bahromjon bundan sakkiz yil muqaddam import o‘rnini bosadigan sendvich ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Pishiq va zamonaviy materialdan vohada ko‘plab ijtimoiy soha binolari, ishlab chiqarish korxonalari bunyod etildi. Ellikdan ortiq ishchilar mehnat qilayotgan korxona endilikda sendvich panelda ishlatiladigan bazalt va penoplast qoplamalari ishlab chiqarishni ham o‘zlashtirmoqda. Yangi korxona yil yakunigacha foydalanishga topshiriladi va yana to‘rt yuzga yaqin ish o‘rni barpo etiladi.

Faqat shu emas, tashabbuskor ishblarmon Denov tumanidagi Qizilsuv



Abdusaid KO‘CHIMOV, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

daryosi bo‘yida “Yoshlar sayilgohi”ni bunyod etmoqda. Zamonaviy loyihalar asosida qad rostlayotgan sayilgohda savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari, turli ko‘ngilochar maskanlar bo‘ladi. Qurilishga yuz milliard so‘m mablag‘ sarflanadi, mingdan ortiq kishilar ishli bo‘ladi.

Xullas, Surxon vohasida yuqorida nomlari tilga olingan elsevar tadbirkorlar juda ko‘p. Ularning fidokorligi bilan Termiz shahri va barcha tumanlarda yoshlar sayilgohlari qad rostlamoqda. “Sayxunobod”, “G‘ijduvon”, “Uychi” tajribalari asosida hammaga ko‘z-ko‘z qilgulik loyihalar ishga tushirilaypti.

Biroq bu boradagi ishlarni barcha hududda bir maromda, deyish qiyin. “Qiyin”ligini Angor va Sherobod tumanlari misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Angor hududiy jihatdan kichikroq, aholisi ham Sherobodnikidan kam. Hududining bir qismi tog‘likdan iborat bo‘lgan Sherobod esa yer osti qazilma boyliklarining ko‘pligi bilan Angordan ajralib turadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari keng. Tumanda oltingugurt, marmar, sement, osh tuzi, granit kabi yer osti qazilma boyliklari serob. Ammo ana shu boyliklardan samarali foydalanish o‘rniga mavjud korxonalar ham tanazzulga yuz tutayotgani, tumandagi Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining sement zavodi, kalava-iy, yog‘ ishlab chiqarish korxonalari past quvvatda ishlayotgani yoki ishlab chiqarish to‘xtab qolganı tashvishlidi.

Angorda esa buning aksi. Tumanga zamonaviy sanoat kirib kelmoqda. Bir necha kichik sanoat korxonalari barpo etildi, oziq-ovqat mahsulotlari, mebel, qurilish materiallari, yelim buyumlar, kiyim-kechak ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmoqda. Viloyatda yagona bo‘lgan “Top Quality Brand” mas’uliyati cheklangan jamiyatining terini qayta ishlash korxonasi ham Angorda. Ishsizlik darajasi ham Sheroboddan keskin farq qiladi. Ishsizlar soni Sherobodda besh ming, Angorda 2 ming nafarga yetar-yetmas. Gap bu yerda aholining kam yoki ko‘pligida emas, mavjud imkoniyatlardan kim qanday foydalanayotganida. Agar imkoniyatdan oqilona foydalanilganda edi, Sheroboddek katta salohiyatga ega hududda ishsizlik muammosi allaqachon o‘z yechimini topishi mumkin edi.

Yana bir gap: joriy yilning dastlabki choragida Angor tumanida 24,3 million dollar qiymatga teng xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Xususan, “Zamin Angor Klaster” mas’uliyati cheklangan jamiyati 13,7 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mablag‘ini o‘zlashtirib, “Ingichka talai paxtani qayta ishlashni tashkil etish” loyihasini amalga oshirmoqda. Hademay yana yuzlab angorlik ishli bo‘ladi.

Tumanda qiymati 109,1 milliard so‘mlik 52 ta loyiha shakllantirilgan. 6,5 gektar maydonida uchta Kichik va Yoshlar sanoat tadbirkorlik zonasi bunyod etilyapti. Bu loyihalar ishga tushirilgach, 350 ta yangi ish o‘rni yaratilib, byudjetga qo‘shilma 2,6 milliard so‘m mablag‘ tushiriladi. Tumanning mahsulot ishlab chiqarish hajmi 56,9 milliard so‘mga yetkaziladi. Sherobodda esa...

Afsuski, faqat Sherobod emas, viloyatning boshqa joylarida ham ulkan evrilishlar yo‘lga sun‘iy g‘ov bo‘layotganlar uchramoqda. Urug‘chilik, poraxo‘rlilik, tamagirlik degan illatlarning ildizi qirilmayapti. Masalan, o‘tgan yili viloyatda korruptsiyaga oid jinoyat ishlari bo‘yicha 189 nafar shaxsga oid 125 ta jinoyat ishi ko‘rilgan. Ularning 109 nafariaga axloq tuzatish, 12 nafariaga ozodlikni cheklash, 23 nafariaga ozodlikdan mahrum etish, ikki nafariaga muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. 38 nafariaga jarima qo‘llangan. Sherobod tumanida korruptsiya bilan bog‘liq ishlari uchun 16 shaxsga oid o‘nta jinoyat ishi ko‘rilgan.

Surxon, ona daryo, hayqir narakor, Ko‘ksingda qolmasin zarracha g‘ubor! – deya hayriging keladi bunday illatlarga duch kelganda. Chunki alpomishlar o‘lkasi, alplar vatani bo‘lgan Surxondaryoda; dunyoga Hakim at-Termiziy, Sulton Saodat, Imom Termiziy, Xo‘ja Aloudin Attor Vally, Mavlono Muhammad Zohid, So‘fi Olloyordek ulug‘ ahiyollarni yetkazib bergan Surxondaryoda; Sharifuddin

Ali Yazdiyning “Zafamoma” asarida “Janub gavhari” deya ta’riflangan Surxondaryoda; Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “mard va oliyanob, oriyaatl el yashaydigan tabarruk zamin” deya ardoqlagan Surxondaryoda; O‘zbekiurtning janubdan Afg‘oniston, shimoli-sharqdan Tojikiston va janubdan Turkmaniston Respublikalari bilan, shimoli-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh yirik viloyati bo‘lgan Surxondaryoda; tarixi “Avesto”dan-da qadimiyroq bo‘lgan Surxondaryoda bo‘lmasligi kerak bunday qusurlar...

6 Tarixi “Avesto”dan-da qadimiyroq Surxondaryoning o‘tmishi hazilakam emas-ku, axir?

Boysunning Teshiktoshidan topilgan “neandertal odam”, Ayritom, Machay, Zاراوسoy darasidan chiqqan tosh qurollar, qoyalarga chizilgan yovvoyi buqani itlar yordamida ovlash manzaralari, dinozavrlarning toshda qotib qolgan izlari...

Azizlar, tasavvur qiling, dinozavr qachon yashagan? Mezozoy erasida. Shundaymi? Demak, bundan 60 million yillar ilgari ham Surxon daralarida, zovlarida dinozavrlar sudralib yurgan. Ibtidoy odamlar olishgan, jang qilgan afsonaviy ajdaholar, qirq kallali hayvonlar bilan. Neolit va eneolit davrlarida toshlardan bolta, pona, iskana yasagan. Keyin-keyin metalladan, misdan qurol yasashni o‘rgangan, suv bo‘ylarida yerto‘lalar, chaylalar tiklangan, guvalardan uylar qurilgan. Sherobod, Sho‘rchi, Bandixon tomonlarda ilk shaharlar yuzaga kelgan. Sopollitepa manzilidan topilgan ashyalar zamonlar o‘tib humamandchilik, madaniyat, san’at rivojlana boshlaganini, shaharsozlik, mudofaa devorlari qurilganini tasdiqlaydi. Mudofaa devorlari tiklandimi, demak, o‘zaro kelishmovchiliklar, yer, mulk talashuvlari, bosqinchilik urushlari boshlangan. Miloddan avvalgi 8-7 asrlarga kelib, o‘z davrining qudrati davlati – Baqtriya podshohligi tashkil topadi. Biroq keyinchalik bu davlat shu qadard ag‘dar-to‘ntar bo‘ladiki, nom-nishon qolmaydi ne-ne mashaqqatlar bilan qurilgan koshonalardan.

Shu tariqa mamlakatning qo‘ldan-qo‘lga o‘tish davri boshlanadi. Avval, Ahamoniyar sulolasidan bo‘lmish Eron shohlari, keyin makedoniyalik Iskandar, undan keyin kushonlar, eftalitlar, turk xoqonligi, arablar, somoniylar, g‘aznaviylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, mo‘g‘ullar, temuriylar, shayboniylar; 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab chor Rossiyasi, undan so‘ng sho‘rolar zulmi...

Zulmdan qutulishdek mo‘tabar baxtni ming-ming yillar davomida orzu qilgan edi bobolarimiz. Ne baxtki, bizga nasib etdi bu muazzam davron – Vatani mustaqilligi! Erkin havolar kirdi o‘zbekning yuragiga. Yangi davr, yangi hayot... Ayniqsa, keyingi yillardagi bunyodkorliklar, yangiliklar, obodliklar.

– Yuqorida guvoh bo‘lganlarimiz Surxondaryodagi evrilishlardan ayrim parchalar, xalos, – deydi iftixor bilan hamrohım Xolmo‘min Mamatrayimov. – Qo‘hitang qoyalaridan kam emas viloyatimizda qilinayotgan ishlar. Yutuqlarimizning hammasi Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning elparvarligi orqasidan bo‘lyapti. Mana qarang, so‘nggi yillarda mamlakatimiz rahbari roppa-rosa o‘n marta tashrif buyurdilar Surxondaryoga. Har tashrifida o‘nlab yirik loyihalarga poydevor qo‘yildi.

Hamrohinning so‘zi yakuniga yetmay, telefonim jiringlab qoldi. Hayitboy ota. Kelganimni eshitgan bo‘lsa-ya.

– Assalomu alaykum...

– Prezidentimizning ma’ruzasini eshitdingizmi?! – degan baland ovoz jarangladi telefonda. – Xalqaro investitsiya forumida qanday zo‘r gaplarni aytdilar. So‘zlarni qarang, nur taratadi-ya, nur. Qalbi ko‘rinib turganday bo‘ladi har gapida. U kishidan o‘rganish kerak vatansavarlikni, jonfidollikni, samimiyatni, rostgo‘ylikni. Bunday shaxslarni davrning o‘zi olib chiqadi sahnaga. Prezidentimiz haqiqiy O‘zbekiston Qahramoni. Hey, kerak bo‘lsa, Nobel mukofotini berish ham kamlik qiladi bunday ulug‘ zotlarga. Lekin... – Hayitboy ota chuqur nafas olib, bir zum jim qoldi. – Shukronalikni bilmaydiganlar bor, – davom etdi salmoq bilan. – Qaysi kuni ko‘chaga chiqsam, bir yigit hammani o‘g‘riga chiqaryapti, bizda adolat yo‘q, deb baqiryapti. Surishtirsam, hokimiyat bilan bog‘liq ishi bitmabdi. Bitta ishing bitmasa hammani o‘g‘riga, jamiyatda adolat yo‘qqa chiqarish kerakmi? Ammo amaldorlarning ichidayam kalondimog‘, manman, tamagirilar bor-da, uka. Kitob ko‘rmagan, dunyobexabarlardan chiqadi bunday ko‘rimsiz nusxalar. Yil – o‘n ikki oyda bir



Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, avvalo, fuqarolar farovonligini taʼminlash, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini toʻliq roʻyobga chiqarish va har bir insonning shaxsiy qobiliyati hamda isteʼdodini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “xalqni rozi qilish” siyosati zamonaviy boshqaruvning asosiy mezoniga aylandi.

Shundan kelib chiqqan holda Samarqand viloyatining Urgut tumanida ham Prezidentimizning xalqni rozi qilish, inson qadriini ulugʻlashga qaratilgan siyosatini amalga oshirish borasida izchil va natijador ishlar olib borilmoqda. Aholining turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va jamiyatda adolat mezonlarini qaror toptirishga qaratilgan islohotlar amaliy mazmun kasb etmoqda. Xususan, davlat siyosati, mahalliy tashabbus va jamoatchilik faoliyati uygʻunlashgan holda shakllangan “Urgut tajribasi” bugun yangi Oʻzbekistonning strategik rivojlanish modellaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda.

Koʻhna Samarqand shahridan uzoq boʻlmagan Urgut tumani nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning eng qadimiy va ilgʻor hududlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Bu zamin qadim-qadimdan ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va madaniyat beshigi boʻlib kelgan. Urgut nomi turli tarixiy manbalarda tilga olingan boʻlib, u oʻzining togʻli landshafti, musaffo havosi, boy tabiiy resurslari va mehnatsevar, jonkuyar aholisi bilan ajralib turadi. Tumanning geografik joylashuvi ham uning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Urgut togʻ etaklaridagi hosildor zamin, mineral suvlarga boy togʻ manbalari, sharsharalar, yashil maskanlar va moʻjaz qishloqlari bilan sayyohlar hamda tadbirkorlar uchun jozibador hudud hisoblanadi. Choʻltiq – ipak matolar va zargarlik buyumlari sotiladigan Urgut bozori asrlar davomida Markaziy Osiyo savdo yoʻllarining ajralmas qismi boʻlib kelgan.

Bu yurt nainki tabiiy va iqtisodiy boyliklarga, balki chuqur maʼnaviy ruhga ham ega. Urgut aholisi azaldan ilm-maʼrifat va qadriyatlarga sodiqligi, buyuk zotlarga hurmati bilan nom qozongan. Bu hududdagi har bir qutlugʻ maskanda tarixning, irfon va vatanparvarlikning nafari bor. Urgut togʻlari bagʻrida joylashgan ziyoratgohlar, majmualar va muqaddas qadamyolar xalqimizning yuksak maʼnaviyati va ruhiy dunyosi boyishiga xizmat qilib kelmogʻda. Ular qatorida Gʻavsul Aʼzam ziyoratgohi alohida eʼtiborga loyiq. Mazkur ziyoratgoh, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida eʼtibordan chetda qolgan boʻlib, ziyoratchilari uchun zarur infratuzilma va shart-sharoitlar yetarli emas edi. Qutlugʻ maskan sifatida oʻzining tarixiy qiyofasi va muʼniriy fazilatiga mutlaqo mos kelmaydigan holda qarovsiz qolgandir.

Bu maskanning yanada obod boʻlishi, ziyorat uchun munosib holga keltirilishi xalqning madaniy xotirasiga hurmat ifodasi ekanini yaxshi anglagan Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati hokimi lavozimida ishlagan vaqtlarida mazkur hududni qayta obod etish borasida shaxsan tashabbus koʻrsatgani bejiz emas. Bu faqatgina hududni obodonlashtirish emas, ayni paytda Urgutni yurtimiz maʼnaviy-maʼrifiy markazlaridan biri sifatida tiklash, uning ruhiy-tarbiyaviy ahamiyatini jonlantirish, xalq xotirasi va qadriyatlarini asrab-avaylashga qaratilgan izchil harakat edi.

Aynan shu amaliy ishlarning natijasi oʻlaroq bugun Urgut nafaqat viloyat, balki butun mamlakat va hatto qoʻshni davlatlar ziyoratchilari uchun ham ruhiy suyanch, maʼnaviy tozalik bagʻishlovchi markazga aylandi. Buning oʻziyoq ushbu hududga boʻlgan eʼtibor qanchalik samimiy boʻlganini, islohotlar zaminida xalq xotirasiga va maʼnaviy merosiga



yuksak ehtirom mujassam ekanini yaqqol koʻrsatadi.

Yangi texnologiyalar, yangi yondashuvlar

Ayni paytda ana shu maʼnaviy yuksalish bilan hamohang tarzda iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi oʻzgarishlar ham Urgutda oʻzining amaliy natijasini koʻrsatmoqda.

Soʻnggi toʻqqiz yil ichida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida tuman iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga koʻtarildi. Bugungi Urgut – tarix va taraqqiyot uygʻunligini namoyon etuvchi zamin. Bir tomonda boy tarix, milliy hunarmandchilik va maʼnaviy meros, ikkinchi tomonda zamonaviy sanoat, eksportbop mahsulotlar, xalqaro hamkorlik va yoshlarga qaratilgan keng imkoniyatlar. Ana shu jihatlar tufayli Urgut tumani Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Urgut tumani taraqqiyotidagi tub burilish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil

12-oktyabrda qabul qilingan qarori bilan bevosita bogʻliq. Ushbu qarorga asosan, tumanda erkin iqtisodiy zona tashkil etildi. Bu tashabbus nafaqat Samarqand viloyati, balki butun mamlakat iqtisodiyoti uchun ham yangi imkoniyatlar eishigini ochib, hudud salohiyatini toʻliq ishga solishga keng yoʻl ochib berdi.

Soʻnggi yillarda “Urgut” EIZ doirasida jami 145 ta loyiha amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 5,2 trillion soʻmdan oshdi. Bu loyihalar asosida 10 200 dan ziyod ish oʻrinlari yaratildi. Faqatgina shu yil yanvar – may oylarida 30,9 mln. dollarlik mahsulotlar eksport qilinib, bu oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 8,9 mln. dollarga koʻp.

Shu bilan birga, EIZ ishtirokchilarining Davlat byudjetiga toʻlayotgan soliqlari 4,8 barobar koʻpaydi. Bu raqamlar hududda amalga oshirilayotgan sanoat siyosatining samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi. Mergancha, Sariqtepa, Talishbe, Fayzbuloq, Xoʻjabogʻ va Qishloqobod massivlarida sanoat hamda logistika infratuzilmasi, muhandislik kommunikatsiyalari yangilanib, yangi korxonalar va eksportbop ishlab chiqarish quvvatlari faoliyat yuritmoqda.

Eʼtiborga molik jihat shundaki, bu islohotlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samara ham bermoqda. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini taʼminlashda “Urgut” EIZ muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda ishlab chiqaruvchi subyektlarning 27 foizini aynan yoshlar va xotin-qizlar tashkil qilayotgani, 18 ta yangi korxona yoshlar tashabbusi bilan ochilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Xorijiy sarmoyalar oqimida ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Bugungi kunda Urgutda joylashgan 37 ta korxona toʻgʻridan-toʻgʻri chet el sarmoyalari hisobiga tashkil etilgan boʻlib, ularning aksariyati Turkiya, Xitoy, Rossiya va Qozogʻiston kabi mamlakatlardan kelgan investorlarga tegishli. Alohida taʼkidlash oʻrinliki, xorijiy sarmoyalari oqimining bu surʼatdagi oʻsishi, yaratilgan infratuzilmalar va iqtisodiy imkoniyatlar Prezidentimiz tomonidan belgilangan investitsiyaviy muhitni yaxshilash borasidagi topshiriqlarining amaliy natijasidir.

Solishtirma tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi ishlab chiqarish hajmi, eksport koʻrsatkichi va yangi ish oʻrinlari yaratish boʻyicha nafaqat viloyatda, balki respublika miqyosida ham yetakchi hududlardan biriga aylanmoqda. Xususan, 2016-yil bilan taqqoslanganda, tumanning hududiy yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,4 barobarga oshgan.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek: **“Yangi Oʻzbekistonni qurish eskicha qarashlar bilan emas, yangi texnologiyalar va yangi yondashuvlar bilan boʻladi”**. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, “Urgut” EIZ bugun nafaqat sanoat markazi, balki innovatsion ishlab chiqarish, eksport logistikasi va yangi ish oʻrinlari yaratish boʻyicha mamlakatning strategik nuqtalaridan biriga aylanmoqda.

Amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy islohotlar va EIZdagi ulkan sanoat loyihalari bilan bir qatorda, Urgutda xususiy sektorni jonlantirish, mahalliy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash borasida ham mustahkam asos yaratildi. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi samarali sheriklik, yoshlar va xotin-qizlar tashabbuslarini ragʻbatlantirish yangi taraqqiyot modelida muhim oʻrin tutmoqda. Shu jihatdan kelib chiqib, ishbiarmonlik muhitidagi soʻnggi yutuqlarga alohida toʻxtalish oʻrinli boʻladi.

Iqtisodiy islohotlar samarasi nafaqat yirik sanoat loyihalarida, balki mahalliy tadbirkorlik muhitida ham oʻz ifodasini topmoqda. Urgut tumanida kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali mahalliy ishbiarmonlarning faoliyatini qoʻllab-quvvatlash borasida yangi bosqich boshlandi. Xususan, umumiy maydoni 37,4 gektarni tashkil etuvchi 6 ta kichik sanoat zonasida qiymati 111,5 mlrd. soʻm boʻlgan 34 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarining toʻliq ishga tushirilishi natijasida 630 dan ortiq ish oʻrinlari yaratildi.

Eʼtiborli jihat shundaki, mazkur loyihalarda yoshlar va xotin-qizlarning ulushi yuqori. Ayni paytda tumanda ishlab chiqarish subyektlarining 28 foizini yoshlar, 12 foizini esa xotin-qizlar rahbarlik qilayotgan korxonalar tashkil etadi. Bu esa Urgutdagi iqtisodiy oʻsish jarayonlari ijtimoiy barqarorlik va tenglik tamoyillariga asoslanib borayotganini koʻrsatadi.

Tuman hokimligi qoshida ochilgan “Biznes maslahat markazi” ham yirik loyihalarini amalga oshirishda mahalliy ishbiarmonlarga huquqiy va moliyaviy maslahatlar berib kelayotir. Hukumatimizning “Ishbiarmonlarga maʼmuriy toʻsiqsiz muhit yaratish” siyosati doirasida Urgutda 2025-yil yanvar – iyun oylarida 235 ta yangi tadbirkorlik subyektlari roʻyxatdan oʻtkazildi va oʻtgan yildagiga nisbatan 116 foiz oʻsishga erishildi.

Shu yil 16-iyun kuni davlatimiz rahbari raisligida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida davlat va jamiyat boshqaruvini, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni taʼminlashga qaratilgan yangicha konseptual yondashuv ilgari surildi. Ushbu yigʻilishda mahalliy boshqaruv tizimini isloh qilish, natijadorlik va samaradorlik saʼy-harakatlarimizning asosiy parametri boʻlishi lozimligi alohida taʼkidlandi. Shu bilan birga, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash, kambagʻallikni qisqartirish, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini qayta koʻrib chiqishga qaratilgan

Shunday qilib xususiy sektordagi jadal oʻsish, davlat tomonidan yaratilgan qulay muhit va ishbiarmonlar faoliyati nafaqat iqtisodiy koʻrsatkichlarga, balki aholi turmush sifati, taʼlim imkoniyatlari va yoshlar bandligiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda.

Hayotiy gʻoyaning amaldagi ifodasi

Iqtisodiy yuksalishning mazmunan toʻliq boʻlishi uchun faqatgina ishlab chiqarish va investitsiya emas, balki aholining turmush darajasi, taʼlim sifatining yaxshilanishi, bandlik va kasbiy oʻsish imkoniyatlarining kengayishi ham asosiy omil boʻlishi lozim. Urgut tumanida oxirgi yillarda aynan mana shu jihatlariga alohida eʼtibor qaratilayotir.

Urgutlik tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan korxonalar nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, yoshlar va ayollarni ish bilan taʼminlash borasida ham sezilarli hissa qoʻshmoqda. Birgina “Urgut Mikro Metal” va “Innovation Med Total” korxonalari misolida 270 nafarga yaqin fuqarolar ish bilan taʼminlangan. Ular



orasida kasbiy taʼlim muassasalarini bitirgan yoshlar ham, qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan xotin-qizlar ham bor. Bu esa Urgutda mehnat bozorining yangi fazasi shakllanayotganini koʻrsatadi.

Mamlakatimizda taʼlim va kasbga yoʻnaltirish sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ham oʻz samarasini bermoqda. Dual taʼlimni joriy etish,

“Soʻnggi toʻqqiz yil ichida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida tuman iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga koʻtarildi. Bugungi Urgut – tarix va taraqqiyot uygʻunligini namoyon etuvchi zamin. Bir tomonda boy tarix, milliy hunarmandchilik va maʼnaviy meros, ikkinchi tomonda zamonaviy sanoat, eksportbop mahsulotlar, xalqaro hamkorlik va yoshlarga qaratilgan keng imkoniyatlar. Ana shu jihatlar tufayli Urgut tumani Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon boʻlmoqda.”

mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda amaliy mashgʻulotlar tashkil etish, “Ustoz – shogird” tizimini qoʻllab-quvvatlash orqali yoshlarni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash ishlari yoʻlga qoʻyildi. Bu orqali bitiruvchilarning ishga joylashish koʻrsatkichi 75 foizga yetdi.

Shu bilan birga, tumanda hayot sifati va fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan infratuzilmaviy oʻzgarishlar keng koʻlamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025-yilda Urgutda 12 ta zamonaviy umumtaʼlim maktabi, 2 ta bolalar bogʻchasi, bitta yangi sogʻliqni saqlash maskani faoliyat boshlashi moʻljallangan. Shuningdek, elektr tarmoqlari, ichimlik suvi taʼminoti, yoʻllarni taʼmirlash ishlari tizimli va bosqichma-bosqich yoʻlga qoʻyilmoqda. Mahallalarda esa aholi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida sport maydonchalari, dam olish maskanlari barpo etildi.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek: **“Odamlar rozi boʻlsa, davlat ham, jamiyat ham mustahkam boʻladi”**. Urgut tumanidagi taʼlim, sogʻliqni saqlash, infratuzilma va ish oʻrinlari yaratishga qaratilgan faoliyat aynan shu hayotiy gʻoyaning amaldagi ifodasi, fuqarolar roziligini taʼminlashga qaratilgan ezuu harakatlardir.

Darhaqiqat, bandlikni taʼminlash, kambagʻallikni qisqartirish, aholi turmush tarzini tubdan oʻzgartirishga qaratilgan islohotlar tadbirkorlikka asoslangan yangi yondashuv orqali amalga oshirilyapti. Bu esa nafaqat iqtisodiy oʻsish, balki har bir fuqaroning hayotdan roziligini taʼminlash yoʻlidagi muhim qadamlardir.

Urgutda keyingi yillarda aholi bandligini taʼminlashning zamonaviy modellari joriy qilindi. 2025-yilning may oyi holatiga koʻra, Urgut tumanida 285 nafar fuqaro “yoshlar daftari”, “xotin-qizlar daftari” va “ijtimoiy daftar” orqali tadbirkorlik faoliyatini boshladi hamda oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 115 foizni tashkil etdi. Ularning katta qismiga subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va asbob-uskunalar ajratildi. Shu asosda mahallalarda bepul ustaxonalar, kichik sexlar

tashkil qilindi. Masalan, kichik hajmda gilam toʻqish, tikish-bichish, parrandachilik va chorvachilik kabi loyihalar qoʻllab-quvvatlandi.

Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlar tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, kambagʻallikni yengishda aholining ichki salohiyatini oydinlashtirish, ularni mehnat va tadbirkorlikka yoʻnaltirish hamda davlatni maslahatchi, muvofiqlashtiruvchi va ragʻbatlantiruvchi rolda qatnashirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Janubiy Koreyada kambagʻallikni bartaraf qilish boʻyicha milliy strategiyada har bir mahallada mikrotdadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, anʼanaviy kasb-hunar faoliyatini qayta tiklashga yoʻnaltirilgan maxsus dasturlar amal qilgan. Turkiyada esa “bir oila – bir kasb” prinsipi asosida maxsus oʻquv kurslari va ustaxonalar tashkil qilingan.

Oʻzbekiston, xususan, Urgut tajribasi ham bu yoʻnalishda oʻzini oqlamoqda. Har bir mahalla aholisining ehtiyojiga qarab shakllantirilgan mikroiqtsodiy loyihalar, xotin-qizlar va yoshlarga berilgan subsidiyalari natijasida minglab oilalar oʻz faoliyatini boshladi. Bunday yondashuvlar faqatgina ish oʻrinlari yaratilishi bilan cheklanmay, balki insonlarning ongi, dunyoqarashi, hayotga munosabatini ham tubdan oʻzgartirmoqda. Fuqarolarda “men ham yurtim rivojiga hissa qoʻsha olaman”, degan ishonch mustahkamlanmoqda.

Natijada kambagʻallikni qisqartirish sohasida Urgut tumani nafaqat milliy, balki viloyat darajasida ham samarali tajriba maktabi sifatida tan olinayotir. Mahalliy taraqqiyotga asoslangan mazkur model kelgusida Oʻzbekistonning barcha hududiga tatbiq etilishi mumkin boʻlgan oʻziga xos “Urgut formulasi”ni vujudga keltirmoqda.

Bir-biriga suyanuvchi kuchli ijtimoiy platforma

Aytib oʻtish joizki, Urgut bugungi kunda nafaqat tadbirkorlik va sanoat salohiyati, balki maʼnaviy va madaniy qadriyatlari, tarixiy merosi,

ilmiy asoslangan qator yangi mexanizmlar va aniq vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz aytganidek, har bir rahbar – xoh u hukumat, vazirlik va idoralar yoki mahalliy ijro hokimiyati darajasida boʻlsin fuqarolar dardini eshitish, muammolarga yechim topish va amaliy natija koʻrsatishni oʻzining bevosita burchi va shaxsiy masʼuliyati sifatida qabul qilishi shart. Bunday yondashuv nafaqat koʻrsatma, balki barcha darajadagi rahbarlar uchun shaxsiy masʼuliyat va faoliyat mezoniga aylanmogʻi lozim.

Qoratepa, Ispanza kabi ziyoratgohlar, tarixiy qoʻrgʻon qoldiqlari va Urgutsoy sohilidagi tabiiy maskanlar sayyohlarni oʻziga jalb etadigan qudratli salohiyatga ega. Bu hududlarda sayyohlik infratuzilmasi yangilanib, ekoturizm va ziyorat turizmi yoʻnalishida loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda Urgutda madaniyat va maʼrifat sohasida amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat aholining maʼnaviy ehtiyojini qondirish, balki yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, madaniy merosni asrash va yuksaltirishga ham xizmat qilmoqda. Madaniyat, maʼrifat va turizm bu yerda bir-birini toʻldiruvchi, bir-biriga suyanuvchi kuchli ijtimoiy platformaga aylandi.

Umuman olganda, soʻnggi yillarda Urgut tumanida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va maʼnaviy islohotlar Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining hayotdagi yorqin namoyonlaridan biri sifatida koʻzga tashlanmoqda. Bu tajriba markazdan hududlargacha tarqalayotgan yangi boshqaruv madaniyati, “davlat – biznes – jamiyat” oʻrtasidagi oʻzaro ishonch va hamkorlikning sinovdan oʻtgan namunasi boʻlib xizmat qilmoqda. Urgutda shakllangan sektorlararo yondashuv, mahalliy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash, aholi ehtiyojlariga tayangan boshqaruv tamoyillari mamlakat miqyosida kengroq joriy etilishi mumkin boʻlgan zamonaviy modelni yaratib berdi.

Shubhasiz, bu natijalar zaminida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yurtimizda yaratilgan tinchlik, barqarorlik va ishonch muhiti turibdi. Urgutda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlar va yuzlab loyihalarining muvaffaqiyati asosida ham aynan shu xalqparvar siyosatning quvvati bor.

Albatta, shunday natijalar bilan birga hali oʻz yechimini kutayotgan muammolar ham mavjudligini tan olish zarur. Xususan, sanoat, turizm, zamonaviy boshqaruv va xalqaro standartlashtirish sohalarida mahalliy mutaxassislar yetishmasligi, mahalliy mahsulotlarni sertifikatlash, laboratoriyadan oʻtkazish va xalqaro standartlarga moslashuv masalalari hali toʻliq yechimini topmaganini aytish kerak. Turizm infratuzilmasida (yoʻllar, mehmonxonalar, xizmat madaniyati) tizimli muvozanat shakllanmagan, taʼlim muassasalari, jumladan, SamDU Urgut filiali bilan ishlab chiqarish sektori oʻrtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish zarur.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va Urgut tajribasini yanada samarali yoʻlga qoʻyish maqsadida bugungi kunda tumanda qator tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Xususan, iqtisodiy yoʻnalishda mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozor talablariga moslashtirish, sertifikatlash va eksportga chiqarish boʻyicha zamonaviy laboratoriya hamda logistika markazlarini tashkil etish kerak. Jumladan, SamDU Urgut filialida “oziq-ovqat kimyosi va xavfsizligi”, “farmatsevtik kimyo”, “standartlashtirish va sertifikatlash” yoʻnalishlarini ochish orqali iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlashni yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, turizm va hunarmandchilik sohalarini uygʻunlashtirgan holda ziyorat turizmi, sanoat turizmi va mahalliy brendlar marketingida kompleks yondashuvni joriy qilish lozim.

Xulosa oʻrinda aytish mumkinli, Urgut tajribasi yangi Oʻzbekistondagi fuqarolik iftixori, xalq manfaatlariga yoʻnaltirilgan davlat siyosati va mahalliy tashabbus uygʻunligini namoyon etuvchi barqaror rivojlanish modeliga aylanmoqda. Uning keng qamrovda tahlil qilinishi va boshqa hududlarda tatbiq etilishi milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi istiqbolli yoʻnalishlardan biridir.

Farmon AZIZOV,
Urgut tumani Nuroniylar kengashi raisi,
Faxriddin FAZLIIYEV,
mehnat faxriysi,
Olim HOSHIMOV,
mehnat faxriysi.

DOLZARB MASALALAR YUZASIDAN OCHIQ MULOQOTLAR

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hududlarda bo'lib, amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini o'rganish, xalq bilan yaqindan muloqot qilish, ularni o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadida barcha soha xodimlari, mahalla faollari, keng jamoatchilik vakillari, yoshlar hamda saylovchilar bilan qator uchrashuvlar o'tkazmoqda. Bu bejiz emas. Chunki demokratik islohotlarni ro'yogga chiqarish, uning huquqiy asosini takomillashtirish, xalqchil qonun loyihalarini ishlab chiqishda aholi bilan ochiq muloqotlar va unda ko'tariladigan takliflar dolzarb bo'lib, xalq vakillari bundan unumli foydalanayotir.

Deputatlar – hududlarda Malina orqali daromadga ega bo'lish ommalashadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari Abdushukur Hamzayev boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan Samarqand viloyatida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ijrosi doirasida olib borilayotgan ishlar, shuningdek, joriy yil 16-iyun kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan vazifalar ijrosi o'rganilmoqda. Ishchi guruh dastlab Jomboy tumanidagi mahallalarda yashovchi kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy ko'mak, aholi bandligini ta'minlash, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi uchun olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Har bir fuqaroning hayot tarzini yaxshilash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidlagan fraksiya rahbari kam ta'minlangan oilalar vakillari uchun ish o'rnlari yaratish, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi uchun aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berib o'tindi. Shuningdek, ishchi guruh Jomboy tumanidagi Nayman mahallasida amalga oshirilayotgan agrar loyihalar, xususan, malina yetishtirish, uni saqlash va eksport qilish faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Mahallada qariyb 40 gektar maydonda malina yetishtiriladi. Mahalliy tadbirkor O'tkirbek Abdullayev tashabbusi bilan zamonaviy muzlatkich (saqlash majmuasi) tashkil etilgan bo'lib, u yerda terib olingan malina jamlanib, eksport qilinmoqda. Mahallada jami 1 090 ta xonadon mavjud bo'lib, ularning aksariyat tomorqalarida malina yetishtirilayotgani qayd etildi. Aholining aytilishiga, har bir xonadon malina orqali o'rtacha 35 – 40 million so'm daromad topmoqda. Ushbu tajriba hududda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta'minlash va eksportboop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha muhim namuna sifatida qayd etildi.

Bandlikni ta'minlashga oid tavsiyalar berildi

Qonunchilik palatasi deputati Tohir Polvonov Xorazm viloyatida bo'lib, mahalliy muammolarni o'rganmoqda. Dastlab Yangiariq tumani Ogahiy mahallasida "mahalla yetitilgi" faoliyati bilan tanishildi. Xalq vakillari ta'kidlashicha, mazkur tizim mahalliy muammolarni markazga chiqarmasdan, hududning o'zida samarali hal qilish, kambag'allikni qisqartirish va jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mahallada 3,5 mingdan ziyod aholi yashaydi, ularning 4 nafari yolg'iz, 176 nafari esa nogironligi bo'lgan fuqarolardir. Deputat "mahalla yetitilgi" faoliyati bilan tanishar ekan, mas'ullar bilan muloqot qildi. Suhbat chog'ida oxirgi olti oyda mahallada 44 nafar fuqaroga 730 million so'm miqdorida kredit ajratilgani va bu orqali ularning o'zini o'zi band qilishi ta'minlanayotgani qayd etildi. Deputat Yangiariq tumanidagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limida ham bo'lib, fuqarolar murojaatlari va ularning ijrosi bilan tanishdi. Ayniqsa, "Yantex Invest" MChJda o'tkazilgan uchrashuv qizg'in va samimiy o'tdi. Bu yerda ishlab chiqarigan 40 dan ortiq mahsulotlar 12 davlatga eksport qilinmoqda. Korxona rahbari Zulfiya Madrahimova 19 – 45 yoshdagi 79 nafar xotin-qizni ish bilan ta'minlagani, ularning uch nafari nogironligi bo'lgan fuqarolar ekanini bildirdi. Yaqin vaqtlarda yanada ko'proq ish o'rnlari yaratish rejalashtirilayotgani qayd etildi. Deputat bu bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tdi.

Yosh avlod salomatligi – kelajak poydevori

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Gulruh Agzamova Toshkent shahriding Bektimir tumanida bo'lib, qator muhim obyektlar faoliyati bilan tanishdi. Avvalo, deputat tegishli mas'ullar bilan birgalikda hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha fikr almashdi. Aholining turmush darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur tahlil qilish, mavjud zaxira va imkoniyatlarni to'liq safarbar etish yuzasidan tumanidagi Oltintopgan mahallasi fuqarolari bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Shuningdek, deputat Bektimir tumanidagi 575-maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lib, skolloz va yassioyoqlik kabi kasalliklarning oldini olish maqsadida o'tkazilayotgan tibbiy ko'riklarda qatnashdi. Tadbirlar bolalarning salomatligini asrash va ularni vaqtida tibbiy tekshiruvlar bilan ta'minlash muhimligi qayd etildi. Xalq vakili tuman tibbiyot birlashmasi markaziy ko'p tarmoqli poliklinika faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi. Shifoxonaning imkoniyatlari, tibbiy xizmatlar sifati va bemorlarni qabul qilish jarayonlari bilan qiziqib, aholiga yuqori darajadagi tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash yuzasidan tegishli takliflarni ilgari surdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi o'rganishlari davom etmoqda.

“Xalq so'zi”.

O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi jamoasi uszoq yillar davomida bank-moliya tizimida faoliyat yuritgan Assotsiatsiya bosh mutaxassisi

Abdulla IMOMXODJAYEVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

O'ZGARAYOTGAN BOSHQARUV PARADIGMASI: NATIJADORLIK – ASOSIY MEZON

Prezidentimiz raisligida shu yil 16-iyun kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishda joylarda muammolarni yechishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda "yuqoridan ko'rsatma kutish" amaliyoti keskin tanqid ostiga olindi. Ayni chog'da viloyat, tuman va shaharlar hokimlari hamda vazirlarga o'z hududlari, tarmoq va sohalaridagi muammolarni oldindan ko'rib, proaktiv hal qilish vazifasi qo'yildi.

Tahlil

Bundan buyon rahbarlar, ular boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'i nazar, yuzaga kelgan vaziyatlarga kechiktirmasdan, tezkor javob berishga qodir bo'lishi talab etiladi, fuqarolarning har qanday murojaatlariga masalaning yechimi bilan javob beriladi. Buning uchun rahbar o'z hududidagi muammolar, xavf-xatarlar va imkoniyatlarni o'zi mustaqil tahlil qilishi hamda baholashi lozim. Aholi va biznes vakillari bilan faol muloqotda bo'lish, muammolarni yuqoridan ko'rsatma kutmasdan, o'z joyida hal etishda mas'ullarning faol bo'lishi talab qilinadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan masalaning bunday qo'yilishi bejiz emas. Bu mamlakatda boshqaruv paradigmasining jiddiy o'zgarishiga da'vaddir, desak, yalanglishmaymiz. Vaholanki, amaldagi vertikal boshqaruv yuqoridan buyruq kutishdan gorizontal, ya'ni joylarda yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyatni tezlik bilan baholash va proaktiv qarorlar qabul qilishga o'tish – aniq vazifa qilib qo'yildi.

Yangi tizim qanday ishlaydi?

Mamlakatimiz rahbari proaktiv yechimlar nimani anglatishi va uni amalga oshirish uchun rahbarlar qanday amaliy qadamlarni qo'yishi kerakligini batafsil ko'rsatib berdi. Ya'ni proaktiv (faollik bilan) qarorlar qabul qilish – ma'lumot topish, tahlil etish, eng ko'p afzallikka ega yo'lni tanlash va natija nazoratini o'z ichiga olgan tizimli ish ekanini tushuntirildi. Endi mahalliy hokimliklar faoliyatida oddiy muammoni oldindan ko'ra olish, holatga to'g'ri baho berish va yechimi bo'yicha yuqoridan buyruq kutmasdan, tashabbusni o'z qo'lga olgan holda qaror qabul qilish talab etilyapti.

Markazlashgan boshqaruv tizimidan qolgan eng og'ir yuk, bu – hududiy boshqaruv organlariga nisbatan "yuqoridan tushirilgan buyruqning ijrochisi" sifatida qarash stereotipi hanuzgacha saqlanib qolgan bir holatda proaktiv qarorlar qabul qilib bo'ladimi? Agarda qarorlar markaziy idoralar bilan kelishilmagan yoki muvofiqlashtirilgan bo'lsa, uning ijro etilishi dargumon. Chunki ijro uchun barcha resurslar hokimning qo'lida emas. Inson va ma'muriy boshqaruv resurslari bilan ta'minlanmaganligi bois hokimliklar yuqorida qayd etilgan masalalarni to'liq va yakkaboshchilik asosida hal qilish imkoniyatiga ega emas. Avvallari yakkaboshlik bilan ijro etilgan qarorlar uchun hokim katta ehtimol bilan "jazolash

obyekti"ga aylanan edi. Bugungi kunda hududlarda samarali gorizontal boshqaruv tizimi joriy qilinmagan hamda vazirlik va idoralar quyi bo'g'inlari rahbarlari ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshirishda hokimliklarning vakolatlari cheklangan bir paytda ularga 500 dan ortiq funksiyalar yuklatilgan. Xokim va uning o'rinbosarlari tomonidan vazirlik va idoralarning tuman (shahar) bo'linmalarini nazorat qilish bo'yicha yetarli vakolatlari mavjud emas.

Boshqaruvning haddan tashqari markazlashganligiga qaramasdan, joylarda bandlikni ta'minlash, soliq tushumi, qishloq xo'jaligi, hududlar infratuzilmasini rivojlantirish va shaharsozlik, ekologiya hamda obodonlashtirish kabi masalalar bo'yicha so'rov bevosita hokimlardan bo'layotganligi, endi bunday tizimdan voz kechish payti kelganligi yig'ilishda baralla aytildi. Idoralararo qo'ozbozlik va byurokratiyaga barham berilib, mahalliy hokimiyat, vazirlik va davlat idoralari bilan munosabatlar muiltaga yongicha tizimda yo'lga qo'yilishi belgilab berildi.

Dastlab tajriba sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi 9 ta vazirlik va idoraning (Iqtisodiyot va moliya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Qishloq xo'jaligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi, Madaniyat vazirligi, Kadastir agentligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligi) tuman (shahar) bo'linmalarini hokimliklar tuzilmasiga o'tkazish orqali tuman (shahar) hokimliklarida boshqaruvning alohida tartibi joriy qilinadi.

Bunday o'zgarishlar joylarda mahalliy hokimiyat institutining vakolatlarini kengaytirish, mahalliy darajadagi muammolarni yechishda markazga bog'liqlikni kamaytirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini beradi. Shuning bilan birga, har qanday proaktiv tashabbuslar uchun mahalliy boshqaruv organlarining shaxsiy javobgarligi ortadi.

Yig'ilishda Prezidentimiz hududlarni rivojlantirishning strategik vazifalarini tizimli va tezkor amalga oshirish uchun yangi tizim joriy etish vazifasini qo'ydi. Unga ko'ra, har bir tumanida "Islohotlar shtabi" tashkil etilib, unda mahalliy hokimiyat organlari, biznes va jamoatchilik vakillari ishtirok etadi. Mahalla darajasiga tushib, chuqur tahlilga asoslangan uch yillik rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturda hududni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish loyihalari, moliyalashtirish manbalari va amalga oshirish mexanizmlari aniq aks ettiriladi. Ushbu uch yillik dasturlarga asoslanib, har yili byudjet, investitsiya va infratuzilma rejaları



hamda bandlik dasturlari tasdiqlanadi.

Ma'lumki, har bir hudud rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Misol uchun, Bo'stonliq tumani turizmga ixtisoslashgan hudud bo'lib, uning "o'sish nuqtasi" ekoturizmni rivojlantirish hisoblanadi. Yoki Bulung'ur tumani bog'dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan hudud bo'lib, uning "o'sish nuqtasi" qishloq xo'jaligini rivojlantirish sanaladi. Shaharlarni rivojlantirishda ustuvorlik xizmat ko'rsatishga qaratilsa, tumanlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, asosiy e'tibor qishloq xo'jaligiga berilishi mumkin. Bu borada har bir hududning o'ziga xos yo'lini tanlab olishda, avvalo, bosh maqsadni to'g'ri belgilash zarur. Ya'ni qaysi bir shahar yoki tuman bosh maqsadga muvofiq 5 yil yoki 10 yildan so'ng rivojlanishning qanday darajasiga erishgan bo'ladi? Masalan, "Toshkent viloyatining Nurafshon shahri mintaqaning xizmat ko'rsatish markaziga aylanadi", deb bosh maqsadni va tegishli vazifalarni belgilamoqchimiz. Buning uchun yetarli asosga, tahlillarga ega bo'lishimiz kerak.

Bunday tarzda qo'yilgan bosh maqsadning ustuvorligi va ahamiyatligi har bir hududning o'ziga xos jihatlari, muammolari, tashqi va ichki ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda asoslantiriladi. Oddiy qilib aytganda, aynan mana shu jarayon hudud rivojlanishini strategik rejalashtirish sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqib, viloyat, tuman va shahar xokimliklarida hududlarni rivojlantirishda strategik boshqaruv modeliga o'tish vazifasi qo'yilmoqda. Ushbu modelga ko'ra, endilikda yangi tayinlangan hokimlar 2 oy muddatda o'z hududining "o'sish nuqtalari" va ishlatilmagan imkoniyatlarini aniqlaydi hamda dastur ishlab chiqib, tegishligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari muhokamasiga taqdim qiladi.

Hududlarni rivojlantirishga strategik yondashuv

Prezidentimiz hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda tizimli yondashuv zarurligini ham ta'kidladi. Bunday dasturlar qat'iy ijro mexanizmlari va jamoatchilik oldida hisobdorlik tamoyiliga asoslanishi qayd etildi.

Bundan buyon byudjetni rejalashtirish bo'ladimi yoki investitsiya dasturi loyihalarimi, ularni ishlab chiqish va amalga oshirishda, har bir tuman va shahar hududida to'planib qolgan dolzarb muammolarni samarali hal qilishda nafaqat davlat, shuningdek, xususiy, korporativ, jamoat, nodaviat va notijorat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi taqozo etiladi. Bunday hamkorlik, mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yuqorida zikr qilingan har bir subyektni yagona g'oya, maqsad va vazifalar atrofida jipslashtirishi lozim.

Mahalliy darajada ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning dolzarbligini ortib borayotgan bir paytda hududlarni barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan o'ta muddatli (3 – 5 yilga mo'ljallangan) rivojlantirish dasturlarini strategik rejalashtirish usulida ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Bunday strategik ahamiyatga ega dasturlarni ishlab chiqishda, avvalo, hududda yuz berayotgan o'zgarishlarni, kechayotgan jarayonlarni to'g'ri anglab olish, hududning zalf jihatlardan kelib chiqib, yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, mavjud salohiyat va imkoniyatlarni hisobga olgan holda hududni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Ushbu jarayonda davlat, jamoatchilik va xususiy sektorning uyg'unlikdagi harakatlari, bir tomondan, Hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib, hududni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va atrof-muhit bo'yicha muammolarni hal qilishdagi sa'y-harakatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Boshqacha aytganda, tomonlarning o'zaro bir-birlarini tushunishiga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvga mos qonunchilik

Hududiy boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qonunchilik asoslarining takomillashtirilishi davr talabi, desak, o'rinni bo'ladi. Qonunchilikka kiriritilishi lozim bo'lgan o'zgartishlar an'anaviy "operativ" yondashuvdan "proaktiv" boshqaruvga o'tishda yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishni talab etadi.

Mahalliy hokimiyatda hokim va xalq deputatlari Kengashining vakolatlarini aniq ajratish masalasini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks ettirish bu boradagi birinchi qadam bo'ldi. Vakolatlarni taqsimoti

Demak, boshqaruvning bunday proaktiv modelini qo'llab-quvvatlash mahalliy boshqaruv paradigmasi o'zgarayotganini anglatadi.

Bunday transformatsiyaga mos qonunchilik bazasini takomillashtirish esa mahalliy rahbarlarga tezkor qarorlar qabul qilish huquqini beradi. Ayni vaqtda mahalliy boshqaruv samaradorligini tubdan oshirib, ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan bartaraf etish, barcha iqtisodiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sharofiddin NAZAROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi.

Havo musaffoligini saqlashga har birimiz mas'ulmiz

Tan olish kerak, bugungi kunda havoning ifloslanishi bilan bog'liq muammo inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, allergiya va nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqarmoqda. Aynan shuning uchun ham biz nafas olayotgan havoning toza va musaffo bo'lishiga erishish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Ekologiya

Aslida, atmosfera havosining ifloslanish indeksi me'yori 1,0 birlikda bo'lishi talab etiladi. O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmati markazining ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda havosi nisbatan toza shaharlar (atmosfera havosining ifloslanish indeksi 1,1-2,63 birlik atrofida) Denov, Qo'qon, Marg'ilon, Qarshi, Kitob, Shahrisabz va Samarqand bo'lsa, havosi og'ir hamda ifloslangan hududlarga (atmosfera havosining ifloslanish indeksi 4,3-5,3 birlik) Angren, Olmaliq, Farg'ona, Buxoro va Toshkent shaharlari kiradi.

Yuqorida nomi keltirilgan markaz xabariga ko'ra, so'nggi 8 yil yilda Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanishi chang hisobiga 1,3-2,7 barobar, azot 2 oksidi hisobiga 1,3-2,0 barobar yomonlashgan. Ayniqsa, bu holatlar yozning jazirama va shamolsiz kunlarida bir necha karra oshadi.

Shu o'rinda shaharlarda atmosfera havosi nimadan ko'proq ifloslanadi, degan savol tug'iladi. Javob shuki, keyingi paytda shaharlar atmosferasi zavod-fabrikalar yoki chiqindilardan ko'ra transportdan ko'proq ifloslanmoqda.

Toshkent shahri misolida aytadigan bo'lsak, 85 – 90 foiz havoning ifloslanishi transport tashlamalaridan yuzaga kelyapti. Qolgani shahar atrofidagi sanoat korxonalari va shahar ichidagi ochiq osmon tagida pishiriladigan ovqatlardan chiqadigan tutunlardan ifloslanadi.

Aniq raqamlarga o'talsak, Toshkent shahrida 2021-yilda 426 ming tonna zaharli chiqindilar atmosfera havosiga chiqarilgan. Shuning 395 ming tonnasi (90 foiz) transport vositalaridan hosil bo'lgan zaharli tashlamalar hisoblanadi.

2018-yilda 449 ming tonna zaharli gaz Toshkent osmonini qoplagan bo'lsa, shuning 60 foizini transport vositalarining tutuni tashkil etgan. Ko'ryapsizmi, Toshkentda transport tashlamalari uch yilda 30 foizga oshgan.

Yana bir ma'lumot. Bugungi kunda respublikamizda 2 millionta avtotransport mavjud bo'lsa, shundan 450 mingtasi Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tgan. Har kuni 48 – 50 mingta avtomashina Toshkent shahriga kirib-chiqadi. Demak, bir kunda Toshkent shahrida 500 mingta avtotransport harakatlanadi. Ro'yxatdan

o'tgan avtomobillarning 75 foizi benzin va dizel yoqilg'isida, 25 foizi tabiiy gazda yuradi.

Aniqrog' aytadigan bo'lsak, Toshkent shahrida bir kunda 500 mingta avtomashina harakatlansa, o'rtaacha 5 litrdan yoqilg'i ishlatgan taqdirda ham 2500 tonna yoqilg'i sarflanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1 tonna avtomobil yoqilg'isi ishlatilganda atmosfera gaziga 208 kg. zaharli chiqindi ko'tariladi (gazli mashinalar esa 3 barobar kam). Demak, Toshkent shahri osmoniga har kuni 520 tonna zaharli gaz chiqarilmoqda. Avtomobillar soni esa yildan-yilga ortib borayotir.

Musaffo muhitni ta'minlash uchun, avvalo, atmosfera havosi tozaligini doimiy monitoring qilib, dinamikasini o'rganib borish, havoni ifloslantiradigan omillar va sabablarni aniqlash talab etiladi. Shahar havosini toza saqlash uchun aniq ishlaydigan mexanizmlarni yaratish ham dolzarb. Shuningdek, avtomobillarni texnik ko'rikdan o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Texnik nosoz yoki muddatini o'tab bo'lgan avtomobillarning shahar ichida yurishi taqiqlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Barchamizga yaxshi ayonki, havoga ko'tarilayotgan zararli gazlar aslida ko'rinmas qotil hisoblanadi. Aholi, ayniqsa, yosh bolalar va keksalar hayoti uchun yanayam xavfli.

Buning oldini olish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak? Birinchidan, katta shaharlarda, jumladan, Toshkentda aholi yashash joylari, avtomobil yo'llari yoqalarida, shahar atrofidagi ishlab chiqarish (sanoat) zonalarida atrofida

atmosfera havosi tozaligini o'lchab boradigan kuzatuv punktlari sonini oshirish kerak. Kuzatuv punktlarida kutunaning uch vaqtida – ertalab, tushda va kechqurun ma'lumotlarni tahlil qilib, havoning ifloslanish indeksini, dinamikasini o'rganib, xulosalar chiqarish jiddi muhim. Bundan tashqari, qurilishlarni, katta yuk avtomobillarining harakatlarini tartibga solish choralarini kuchaytirish lozim.

Shuningdek, havoni nazorat qilish uchun ifloslantiruvchi gazlar va zararchalar chiqindilarini kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish bugungi kunning muhim talabidir. Bu chiqindilarni kamaytirish bo'yicha milliy va xalqaro huquqiy normalarni belgilash hamda texnologiyalarni izchil amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ona tabiatni asrash va aholi salomatligini muhofaza qilish bilan bog'liq dolzarb muammolarni hal etish kelajak avlodlarning musaffo muhitda yashash huquqini kafolatlaydi. Bu barchamizning muqaddas burchimiz ekanini hech qachon unutmasligimiz lozim.

Xolida RO'ZIMOVA, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali o'qituvchisi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Zamira RO'ZIQULOVA, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali o'qituvchisi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyristga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyrist kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir X. Norboyev.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.25 Topshirildi — 01.20

1 2 3 4 5 6